

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 370.3

SHUKUROVA NILUFAR XALIYAROVNA

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIV-
AXLOQIV TARBIYALASHDA INNOVASION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

5A 110901 – Pedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
Ruxsat berildi.

«Pedagogika» kafedراسi mudiri
prof. Hasanova K. _____

« _____ » _____ 2013 y

M.O'.

Ilmiy rahbar:

Dots. Ahrorov Yu.A. _____

Samarqand – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILANINI MA'NAVIY-AXLOQIY RUHDA TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash – pedagogik muammo sifatida.....	9
1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashning hozirgi ahvoli.....	31
II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA INNOVASION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MAZMUN, SHAKL VA METODLARI	
2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars mashg'ulotlari jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda zamonaviy o'qitish texnologiyalari.....	39
2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	62
III BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY RUHDA TARBIYALASHGA DOIR PEDAGOGIK TAJRIBA TAHLILI	
3.1. Pedagogik eksperiment boshida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlash.....	73
3.2. Pedagogik eksperiment yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi tahlil.....	76
Umumiy xulosalar.....	79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....	82
Ilovalar.....	87

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon mamlakatlari taraqqiyotidan ma'lumki, har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi, unda yashovchi aholining ma'naviy-axloqiy saviyasi nechog'lik yuksakligiga bog'liq.

O'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi davlatimizning ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha asosiy hujjatlarida «Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi», [16,17] - deb belgilab qo'yilgan.

Bugungi ba'zi bir yoshlar ma'naviyatining qisman buzilayotganligi, ayrimlarining bizga mutlaqo yot bo'lgan urf-odat, madaniyatga berilib ketayotganligi, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida turli bezorilik, jinoyat sodir etish hollari uchrab turishi barchamizni tashvishga solmoqda.

Bunday yoshlar kelajakda Vatan ravnaqi uchun o'zlarining qanday hissalarini qo'sha oladilar, qanday kadr bo'lib yetishadilar. Vaholanki, mustaqil O'zbekistonning jahondagi rivojlangan mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga yo'nalgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar bo'lib yetishishiga bog'liq.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishi yoki boshqacharoq qilib aytganda qanday kadrlar kelishiga bog'liq», [1, 64-b.] - deb haqli ta'kidlagan edi.

Prezidentimiz kadrlarni yetishtirishda boshlang'ich ta'lim asosiy poydevor ekanligiga ham e'tiborni qaratgan edi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi, «ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi»[2, 62-b.] ekanligini alohida ta'kidlab, ta'lim sohasida ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samaraga erishilayotganligini ta'kidlagan edi.

Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ta'lim-tarbiya tizimiga innovasion, ya'ni ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish davr talabi bo'lib kelmoqda.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish sohasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu muammo pedagog olimlar M.Ochilov, S.Nishonova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, M.Quronov, M.Inomova, N.Ortiqov, Sh.Olimov, F.Norboyeva, Z.Qurbonniyozov, Q.Quronbayevlar tomonidan maxsus tadqiq etilgan.

Pedagogika fanlari doktori, prof. O.Musurmonova ma'naviy qadriyatlar vositasida o'rta maktab o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirish, dars, darsdan tashqari ishlar jarayonida ularning ma'naviyatini shakllantirish muammosini tadqiq etgan.¹

Pedagogika fanlari doktorlari, prof.M.Quronov, S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Inomova, S.Ochilov tadqiqotlari, barkamol avlodni milliylik ruhida tarbiyalash, axloqiy madaniyatni shakllantirish, yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash kabi dolzarb muammolarni tadqiq etdilar. Q.Qurbonniyozovning dissertasiya ishi talabalarning ma'naviy ijtimoiy faoliyatini oshirishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, unda talabalarning ijtimoiy faoliyatlarini o'stirishda Respublika “Kamolot” Yoshlar Harakatining o'rni,

¹ Musurмонова О. Юкори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед.фан.докт. дис. – Т., 1993. - 36 б. Яна: Ўқувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш. –Т.: Фан, 1993. –112 б.

Z.Qurbonniyozova tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, E.Toshmatova ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarni ma'naviy shakllantirish, Sh.Olimov akademik litsey, kasb-hunar kollejlari talabalarining axloqiy-estetik idealini o'stirish masalalarini tadqiq etishgan.

Yangi pedagogik texnologiyalarga oid izlanishlar V.P.Bespalko, N.Shodiyev, M.Ochilov, N.Azizxo'jayeva, O'.Tolipov, M.Tajiyev, B.Ziyomammedov kabi olimlar qalamiga mansub bo'lib, biroq ularning ilmiy-tadqiqotlarida biz tanlagan mavzu maqsadi tadqiqot maqsadi etib belgilanmagan.

Ana shularni nazarda tutgan holda biz «Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish» mavzusini magistrlik ilmiy ishimiz mavzusi sifatida tanladik.

Tadqiqot maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish orqali uning yaxlit tizimini yaratish.

Tadqiqot obyekti – umumiy o'rta ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarini innovasion pedagogik texnologiyalar orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni.

Tadqiqot predmeti – boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmun, shakl va metodlari.

Tadqiqot vazifalari:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmun-mohiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash.

2. Innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash imkoniyatlarini aniqlash.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmun, shakl, metod

va vositalarini belgilash, ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari natijasida aniqlash hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari ilk marta asoslab berilganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion texnologiyalardan foydalanishning mazmun, shakl va metodlari ishlab chiqilganligi va ularning eksperimental tadbiriga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligi oshadi, agar:

- umumiy o'rta maktablarida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari aniqlanilsa;
- innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini ta'minlovchi omillar hamda ular imkoniyatidan maqsadga muvofiq foydalanilsa;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qo'llaniladigan innovasion pedagogik texnologiyalarning maqbul tizimi ishlab chiqilsa, o'quvchilarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy sifatlarni singdirish samarali kechadi.

Tadqiqotning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida bayon qilingan ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga doir nazariy g'oyalar, Sharq mutafakkirlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qaratilgan falsafiy, psixologik, pedagogik ta'limotlar hamda mavzuga oid ilmiy-pedagogik, falsafiy, metodik manbalar, shuningdek, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», innovasion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash hamda ta'lim islohotlariga doir Respublika hukumati tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari:

1. Tadqiqot mavzusiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlar va ta'lim mazmunini yorituvchi me'yoriy hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish;
2. Test.
3. Pedagogik tajriba-sinov.
4. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish.
5. Matematik statistika.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Umumiy o'rta ta'lim tizimida innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari ochib berildi, innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik mohiyati yoritildi, innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ilmiy ishda yoritiladigan nazariy va amaliy g'oyalardan boshlang'ich sinfda o'qitiladigan ona tili va o'qish, matematika, tabiatshunoslik kabi predmetlar bo'yicha darslik, qo'llanmalar yaratish, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatni tashkil etish va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida samarali foydalanish mumkin. Ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining ommalashtirilishi. Tadqiqot natijalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida, SamDU magistrantlarning an'anaviy anjumanlari to'plamlari, "Ziyokor" ilmiy-uslubiy, ijtimoiy va adabiy-badiiy jurnalida chop etilgan.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari.

Birinchi bosqich (2011 yil sentyabrdan – 2011 yil dekabrgacha)da tadqiqot muammosiga oid falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar, ilmiy

tadqiqot ishlari, shuningdek, pedagogik ta'lim mazmuni o'rganildi. Shu asosda tadqiqot ishining maqsadi, obyekti, predmeti, ilmiy farazi va vazifalari belgilandi. Maqbul metodlar aniqlandi. Dastlabki tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uchun materiallar tayyorlandi.

Ikkinchi bosqich (2012 yil yanvardan – 2012 yil dekabrgacha)da asosiy e'tibor tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga qaratildi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun tajriba maydoni belgilab olindi.

Uchinchi bosqich (2013 yil yanvar - may)da shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqot muammosi yuzasidan ishlab chiqilgan metodikaning samaradorlik darajasi aniqlandi, olingan natijalar matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar berildi.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertasiyasi kirish, uch bob, 6 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Hajmi 86 bet.

BIRINCHI BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILANINI MA'NAVIY-AXLOQIY RUHDA TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash – pedagogik muammo sifatida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi, «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi» [2, 62-b.] ekanligini alohida ta'kidlab, ta'lim sohasida ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishilayotganligini ta'kidlagan edi. Bu ayniqsa, «2004-2009 yillarga mo'ljallangan maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» doirasida hal etilmoqda.

Akademik E.Yusupov ma'naviyatga shunday ta'rif beradi: «Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, e'tiqodi, iymoni, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan mushtarak tizimdir» [63, 34-b.].

Professor T.Mahmudov «Ma'naviyat» tushunchasini o'ziga xos talqin qilgan: «Ma'naviyat shaxs va millatning «aqli, qalbi»ni ifoda etadigan, tarix taqazosiga binoan uning turli tomonlari namoyon bo'ladigan, tabiat, jamiyat va insonning insoniylashuvi darajasini bildiradigan ruhiy idrok, ziyrak qalb olamidir» [42].

M. Imomnazarovning fikricha «Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur. Oliy haqiqat nuri bo'lib, shu sababli buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini «Haqiqat asrorining ganjasi» deb ataganlar. Haq asrori esa shunday sehrli timsolki, uni tugal etishga ahli bashar qudrati yetishmaydi» [37, 6-b.].

A. Erkayev esa ma'naviyatni quyidagicha ta'riflagan: «Ma'naviyat – bu ijtimoiy ongning nisbatan umumiy ahamiyat kasb etgan e'tiqod va qadriyatlar

darajasiga ko'tarilgan sobit ehtirolari, tushunchalari, me'yorlari, ijtimoiy mo'ljalari, ideallaridan, ularning madaniy merosda, urf-odatlarda obyektlashgan tizimi va millatni muayyan maqsadlarga erishish uchun yo'naltirilgan milliy iroda hamda jamiyatda qaror topgan va insonning asl mavjudligini ta'minlaydigan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir» [61].

A.Erkayevning ushbu ta'rifiga ko'ra ma'naviyat to'rt o'zaro uzviy bog'liq qismdan tarkib topganligin ko'rish mumkin:

1. Ongning, dunyoqarashning odamga faol munosabat ko'rinishidagi funksional jihati (ijtimoiy ong shakllariga muvofiq – falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, huquqiy tuyg'ular, tushunchalar, baholar, qarashlar, nazariyalar).

2. Ma'naviy madaniyat yutuqlari (xalq og'zaki ijodi asarlari – qo'shiqlar, dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar, xalq amaliy san'ati asarlari, adabiy, me'morchilik, dizayn, tasviriy san'at, teatr, kino, musiqa, estrada asarlari va sh.k.; fan, ommaviy axborot va tashviqot, ta'lim-tarbiya tizimi, istirohat va sport, urf-odatlar, diniy amaliyot va h.k.).

3. Iroda (erkin tanlash, qat'iyat, fidoyilik, or-nomus, milliy g'urur, qo'rquv va h.k.).

4. Jamiyatda qaror topgan ma'naviy muhit.

Pedagog olim, professor Safo Ochil o'zining «Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari» nomli monografiyasida ma'naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati ustida to'xtalib shunday yozadi: «Ma'naviyat deganda, tug'ilgan va o'nib-o'sgan muqaddas yer, oila, ota-ona, farzandlar, qarindoshlar, og'aynilar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y, xalq, shuningdek mustaqil davlatga hurmat va sadoqat, insonlarning qadr-qimmatini joyiga qo'yish, bir-biroviga va davlatga ishonch, ajdodlar xotirasi, iymon va vijdon, diyonat, vatan himoyasi va mehnatda jasorat, mehr-oqibat, nafaqat ozodlik va erkinlik, hamkorlik va birodarlik kabi muborak an'ana, qadriyatlarni anglamoq zarur. Insonni inson deb atashga beriladigan kafolat ana shularda ko'rinadi» [44, 152-b.].

Professor M. Quronov o'z tadqiqotlarida milliy tarbiyamizning o'ziga xos xususiyatlari va taraqqiyoti, milliy tarbiya mezonlari, ta'limning milliy tarbiyaviy imkoniyatlari, maktab tarbiyaviy tizimi mazmunini milliy tarbiya mazmuni bilan to'ldirish, boyitish, maktab, oila va keng jamoachilikning mazkur soha bo'yicha o'zaro hamkorligi hamda zamonaviy maktab o'qituvchisini milliy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash kabi masalalar o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish nuqtai nazaridan tahlil qilingan [40].

«Ma'naviyat» tushunchasiga nisbatan fikr-mulohaza, munosabat bildirish respublikamizda o'tkazilayotgan katta-kichik ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalarida ham davom etmoqda [18, 22-26-b]. Masalan, 2001 yilda bo'lib o'tgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metod va usullari» Respublika konferensiyasida «Ma'naviyat» tushunchasining mazmun-mohiyati bo'yicha turfa fikr-mulohazalar bildirilganligini ta'kidlash joizdir. Hozir ana shularning ayrimlarini qarashga o'tamiz.

E.A. Azimova bu haqda fikr yuritib, «Shaxs ma'naviyati o'zida Vatan, ota-ona, qarindoshlarga bo'lgan hurmat, sadoqat, insonparvarlik, mustaqillik mafkurasi hamda ijtimoiy rivojlanish g'oyalariga ishonch, ozodlik, erkinlik, hamkorlik kabi qadriyatlarni ifoda etadi», deb yozadi [18, 207-b.].

Professor E.O.Turdiqulov ma'naviyat – shaxsning ruhiy va aqliy olamining majmui ekanligini ta'kidlab, uning yuqorida bayon qilinganlardan farqli tomonlarini ochib beradi. Uning fikricha, «Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim shaxsning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, ma'rifati, madaniyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma'naviyat – inson madaniyatining asosiy negizi. Ma'naviyat – insonga ruhiy oziq, quvvat beradi. Ma'naviy jihatdan mukammal, boy inson eng yuksak axloqiy fazilatga ega bo'ladi. Bunday tarbiyaga ega bo'lgan inson atrof-muhitga, insonga, jonvorlarga, o'simliklar dunyosiga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi.

Bilmaslikdan ma'rifat sari, dunyo, olam haqidagi tasavvurlar, tushunchalar tomon siljish ma'naviyat yo'lining qanchalik uzun va uzluksiz ekanligidan dalolat beradi. Bu ma'rifat yo'li shunchalik so'qmoqlarga boy ekanki, insoniyat haqiqat bekatiga yetib kelguncha juda ko'p murakkab tafakkur va ruhiy «qal'a» larni qurishga, o'zi qurgan «qal'a» larni buzib tashlash, yana boshqa tasavvur «qal'a» sini yaratishga to'g'ri kelgan.

Insoniyat o'z aqliy erkinligini kuchaytirgan sari ma'naviy erkinlikka erishishning mushkulligiga giriftor bo'laveradi» [18, 188-b.].

Sh.Usmonova ma'naviyatning tarkibiy qismlarini namoyon qilishga urinib ko'rgan:

- madaniy-ma'rifiy yuksaklik;
- ijtimoiy-didaktik taraqqiyot;
- falsafiy-pedagogik o'sish;
- iymon-e'tiqodning butligi;
- milliy axloq-odob normalariga to'la rioya qilish;
- ilm-ma'rifatli bo'lish;
- insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik;
- milliy qadriyatlarga muhabbat;
- fidoiylilik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik;
- poklanish;
- dinga e'tiqodlilik;
- Vatan va xalq mustaqilligini doimiy ravishda himoya qilish va unga xizmat etish;
- ajdodlar va ularning merosiga chuqur hurmat [18, 176-b.].

A.Otajonov o'z ishida ma'naviyat tushunchasiga quyidagi ta'riflarni keltirgan [18, 121-b.]:

- Ma'naviyat – insonning botiniy va zohiriy olami;
- Ma'naviyat – millat nishoni;
- Ma'naviyat – inson qalbidagi nur;

- Ma'naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmui;
- Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim kishilarning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlantiruvchi tushuncha;
- Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlar ma'naviyat deb ataladi.

Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi xalqning buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakat har bir fuqarosini yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib, faoliyat ko'rsatishga chorlash, milliy qadriyatlarimiz, ajdodlar an'analariga munosib bo'lishga erishish, komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy tushuncha bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, ma'naviyat tushunchasining yagona, uzil-kesil ta'rifi yo'q. Unga har bir muallif o'z tabiatidan kelib chiqqan holda ta'rif bergan va har bir ta'rif qaysidir jihatdan to'g'ri bo'ladi. Ma'naviyat so'zining «ma'ni» bilan o'zakdosh ekanligi uni inson ichki olami, ko'zga ko'rinmas tomon – ruhi, qalbi, ko'ngliga bog'laydi. U inson siyratini tashkil etuvchi keng ko'lamlı tushuncha bo'lib, inson odob-axloqi, yaxshi-yomonligi, intellekt darajasi, tafakkur tarzi kabi ichki omillarni qamraydi.

«Pedagogika» darsligining [36] mualliflari O'zbekistonning XXI asrdagi mutaxassisleri qanday ma'naviyatga ega va qaysi fazilatlar sohibi bo'lishlari kerak degan savolga javob topish uchun boy tariximizga murojaat qilishni tavsiya etganlar.

Shu munosabat bilan Geradotning «Tarix» kitobini o'rganish shundan dalolat beradiki, unda bundan uch ming yil avval ajdodlarimiz qadrlagan xislatlarning asosiysi jasurlık, undan keyingi muhim xislatlar adolatlılık va mohirlik ekanligi e'tirof etilgan.

Ma'naviy merosimiz hisoblangan epik rivoyatlar («Avesto», «Go'ro'g'li», «Alpomish» va b.q.)da ajdodlarimizning vatanini, xalqini sevish, or-nomus va do'stlarga sadoqat kabi sifatlar ularning asosiy ijtimoiy xislatlari hisoblangan.

Ma'lumki, Turon zamin aholisining ma'naviyati va ruhiyati islom ta'limoti asosida shakllangan va rivoj topgan. U insonparvar, odob va axloq, ruhiy poklik va ma'naviy komillik, mehnatsevarlik kabi ijtimoiy sifatlarni o'z ichiga olgan.

Islom odamlarni iymonli bo'lishga undab, uni o'ziga xos mezon qilib, saxovat, mehmonavozlik, jasorat, sabr-qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlik kabi xislatlarni birinchi o'ringa qo'yadi. Hadislarda insonning ma'naviy kamolot mezoni, uning bilimlarni qay darajada egallaganligiga bog'liq eganligi ko'rsatilgan.

Sharq ilk jonlanish davri (IX-XI asrlar) allomalari ham o'z asarlarida bilim egallashning foydasi haqida juda ko'p fikrlar bildirganlar. Jumladan, Beruniy: «Barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda» [31], - degan ekanlar. Ibn Sino: «Haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerak, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelavermaydi. O'z bilimining haqiqiylikini bilish uchun mantiqni bilish zarur», [22] - deganlar.

O'rta asrlar Markaziy Osiyo allomalari va XIX asrdagi jadidlar harakati namoyondalari ham kishining insoniy sifatlariga alohida to'xtalib, komil inson siymosining asosiy belgi (xislat)larini ko'rsatganlar. Ularning asarlarida ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan insoniy sifatlar – insonparlik, bilimga e'tiqod, xalq manfaatini himoya qilish, ma'naviyatni yuksaltirish, komil inson va yetuk jamoaga erishish masalalari yoritilgan. Endi yuqorida bayon qilingan muqaddas zaminimizning ma'naviy merosidan foydalanib jamiyatimizning, davlatimizning shaxs (maktab o'quvchisi, oliy o'quv yurti talabasi)ga qo'ygan, shu kundagi talablariga mos ravishda, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan mataxassis siymosining chizgilarini qarashga o'tamiz (1-rasm).

I. Sog'lom – jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlik. Sog'lom tushunchasini insonning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy muvaffaqiyati sifatida e'tirof etish

barobarida, olamni yorituvchi va isituvchi kuch – quyosh nuri bo'lganidek, inson qalbi, tafakkuri va butun vujudini ravshan qiluvchi va harakatga keltiruvchi kuch – bu ruhdur. Inson ruhini tarbiyalash vositasida uni go'zal va hamisha yoqimli xulq-atvor sohibi, fazilatlar egasi qilib kamolotga yetkazish mumkin.

Inson ruhini tarbiyalovchi va chiniqtiruvchi vositalar sirasiga Tavrot, Zabur, Injil va Qur'ondagi bilimlarni egallashni va ularga amal qilishni kiritish mumkin.

Ajdodlarimiz ruhlari toza bo'lishi uchun biror kishining tariqcha ham haqini yemaganlar, ular xalq va afkor ommaning g'amini yeyish, do'stu birodarlariga doim yordam ko'rsatish maqsadida «Futuvvat», «Javonmardlik» kabi juda ko'p insoniy qadriyatlar yaratganlar. Demak, hozirgi kunda har bir kishi, avvalo o'z ruhini yuqori darajaga ko'tarishi va unga amal qilishi uchun o'zini to'la erkin hamda mard tutishi zarur.

Ijtimoiy salomatlik insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan belgilanadi. O'z oldiga, oilasi, yoru birodari va millatining farovonligini oshirish, odamlarga yaxshilik qilishdan iborat ezgu niyatlar qo'ygan kishi ijtimoiy salomatdir. Ijtimoiy salomatlik faollikni taqazo etib, bunda kishining yaxshilik qilish niyati so'zda qolmasdan, uni albatta amalga oshirish kerak.

II. Aqlli – mustaqil fikr yurita oladigan kishi. Aql insonning tafakkur qilish qobiliyati bo'lib, inson o'z tafakkurini ishlatib, undan faqat ezgulik maqsadida foydalanadi.

III. Mehnatsevar – mehnat kishining ehtiyojiga aylanganlik holati. Mazkur fazilat mehnatga sadoqatli bo'lgan, uni malakali bajargan kishiga taalluqlidir.

IV. Odobli – millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega bo'lgan shaxs. Bu fazilat to'g'riso'zlik, xushmuomalalik, ozodalik, did-farosatli, jamiyat tartibiga rioya qiluvchi, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish, ota-onani sevish va ardoqlash, ajdodlarni xotirlash kabi xislatlarni o'z ichiga oladi.

V. Bilimli – diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni chuqur egallab, ularni hayotda qo'llay olish darajasi. Bilimli odam diniy hamda dunyoviy bilim asoslarini yaxshi egallagan va ulardan foydalana oladigan bo'ladi.

VI. Milliy g'ururga ega – ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi. Ushbu fazilat har bir insonni o'zining millatiga taalluqli ekanligidan rozi bo'lishida namoyon bo'lib, u kishi ijtimoiy faolligini oshiruvchi asosiy omil bo'lish barobarida uni ezgulikka, yaxshiliklar qilishga undaydi. Milliy g'ururni shakllantirish jamiyatning buyuk kelajak sari intiltiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Odamlarda milliy g'ururni shakllantirish uchun muayyan millatning tarixiy qahramonlari, olimu fozillari, avliyoyu anbiolari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, ularni dunyo ma'naviyati, ilm-fan va madaniyatiga qo'shgan hissalarini haqida xabardor bo'lish zarur.

VII. Vatanparvar – Vatani uchun, xalqi uchun fidokorona mehnat qiluvchi va zarur bo'lsa, ular uchun jonini ham fido qiluvchi. Vatanparvarlik xislati milliy g'urur va boshqa ijobiy xislatlar natijasida ro'yobga chiqadi. O'z millatining tarixini, madaniyati va ma'naviyatini yaxshi bilgan odamda milliy g'urur paydo bo'ladi. O'z navbatida milliy g'urur takomillasha borib, kishida vatani uchun jon fido qilish his-tuyg'usi paydo bo'ladi. Shu bois bunday xislatga ega bo'lganlar insoniy kamolotga yetgan hisoblanadilar.


VIII. Insonparvar – inson zotiga faqat yaxshiliklar qilishni o'ylovchi. Insonparvarlik fazilati, inson zotiga uning irqidan, millatidan, jinsi va yoshidan qat'iy nazar, doimo g'amxo'rlik qilish tushuniladi.

IX. Baynalmilal – boshqa millatlarni o'zining millati qatorida hurmat qiluvchi. Baynalmilallik fazilati umuminsoniy ijtimoiy qadriyat bo'lib, bunda kishi boshqa xalq va millatlarning o'ziga xos ma'naviyatini, urf-odat, san'ati va madaniyatini hurmat qilish tushuniladi. Bu fazilat jahonda tinchlik va totuvlik o'rnatilishiga, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga hamda siyosiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

X. Jasorat – har bir ishga qo'rqmasdan kirishib, oxiriga yetkazuvchi. Jasurlik fazilati insonning faoliyati jarayonida uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklar, hatto xavf-xatarlardan qo'rqmay o'z yo'lida maqsadi sari mardonavor harakat

qilish bilan bog'langan mazkur fazilat har qanday faoliyatni yakuniga yetkazishning asosiy omilidir.

1-rasm



Ma'naviyat tarbiyasi tushunchasining keng qamrovliligini ta'kidlab, prof.Z.Ismoilova shunday yozadi: «Ma'naviy-axloqiy barkamol inson ota-onasi,

farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilari, mahalla-ko'yi, hamqishloqlari va butun mamlakat xalqi farovonligi haqida qayg'uradi; tevarak atrofni o'rab olgan insonlar unga kerak bo'lgani sari, o'zi ham ularga kerakli kishi bo'lishga intiladi; odob-axloqi, fe'l-atvori yoqimli bo'lishini insoniy burch deb hisoblaydi; ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlaydi; milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi; o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyil bo'ladi; birovning og'irini yengil qilishni odat qiladi; umumxalq ma'qullagan Konstitusiyani hurmat qiladi va unga sadoqat namunalari amalda ko'rsatadi; Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda harbiy vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashaydi; diyonat va adolat, mehr-shavqat va ezgulikni himoya qiladi, va'daga vafodor bo'lishni o'ziga kasb qilib oladi» [38, 3-b.].

Ma'lumki, sobiq sovet tarbiya nazariyasida tarbiya jarayonini o'zini tashkil etish, o'tkazish muhim hisoblanib, uning natijasi e'tibordan chetda qolardi, ya'ni butun tarbiyaviy ishning natijasi deyarli nazorat qilinmasdi, o'lchanmasdi. Chunki mazkur tarbiya nazariyasida «Tarbiya maqsadi» masalasiga kam e'tibor berilib, u odatda noaniq ifodalanardi hamda unga erishish darajasi subyektiv hisoblanardi.

O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish o'z navbatida, pedagoglarning o'zlarini ham ma'nan yetuk bo'lishlarini, ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasini hamda maktab ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish metodikasini chuqur o'zlashtirib olishlarini taqozo etadi.

O'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantiruvchi omillarni tahlil qilib, R.Safarova ona tili omiliga alohida o'rin bergan. Muallifning ta'kidlashicha, o'z ona tilini yaxshi bilmaydigan yoshlar xalqimizning kiyinish madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini, tarixi, turmush-tarzigina bepisandlik bilan mensimasdan qarar ekanlar. Ularda o'zga, ya'ni o'zgalarning tilini yaxshi bilgan millat ruhiyatiga yaqinlik, shu millatning madaniyatiga urf-odatlariga intilish, o'zi mansub bo'lgan millat ruhiyatidan esa uzoqlashish vujudga kelar ekan. Shu boisdan muallif oilada,

maktab ta'limi jarayonida o'quvchilarga ona tili boyliklarini har tomonlama chuqur o'rgatishni, maktab ona tili ta'lim mazmuniga tilning amaliy o'rgatish bo'yicha yo'nalishni kuchaytirishni, o'quvchilarni Alisher Navoiy, Bobur, Mahmud Koshg'ariy kabi mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining asarlari tilini tushunishga, lug'at bilan ishlashga, mutolaa-tahlil, tahlil-mutolaaga, qiroat bilan o'qishga alohida e'tibor berishni tavsiya qiladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq ta'lim mazmunini milliyalashtirish barobarida, darslik va o'quv qo'llanmalarining matnini xalqimizning asrlar sinovidan o'tgan urf-odatlarini, axloqiy qarashlari ifodalangan qonun, qoidalar, pand-nasihatlar, hadislar bilan boyitish orqali o'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjudligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Shu munosabat bilan ta'limning ilk bosqichidan boshlab o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning izchil tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. I-IV sinflarda o'quvchilar ma'naviyatini yaxlit tizim asosida shakllantirish uchun o'quv materiallari mazmunini boyitish, ularga ko'proq bolalarning ma'naviy olamini boyitadigan badiiy, tarixiy asarlar, o'zbek va jahon xalqlari ertaklari, qissa va hikoyalar o'qishni tavsiya etish, tarixiy yodgorliklarga ekskursiyalar uyushtirish, yozuvchi, shoirlar, olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'zPFITI tadqiqotchisi T.Niyozmetova yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qadriyatlarining rolini o'rgangan. Bunda u oilaviy qadriyatlarga to'xtalib shunday yozadi: «Oiladagi munosabatlar, ota-onaning o'zaro hurmati, muomala madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, bola ham yaxshi tarbiya oladi. Yoshligidan ertaklar eshitgan, kitobga mehr qo'ygan bola yaxshilik bilan yomonlikning farqiga boradigan bo'lib o'sadi. Kitobga, san'atga qiziqadigan bolalarning dilida, ko'pincha pok tuyg'ular, tabiatga va hayotga muhabbat shakllanadi...

Qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'quvchilar ongiga singdirib borishda har xil muammoli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular o'quvchilarni o'ylashga, boshqotirishga, mustaqil fikrlashga o'rgatadi».

O'quvchi ma'naviy qiyofasini shakllantirishda o'qituvchi shaxsi muhim ahamiyatga ega ekanligi R.Keldiyorov va Ya.Ovloqulov tomonidan ochib berilgan [39, 133-135]. Mualliflarning ko'rsatishicha, o'quvchi ma'naviy qiyofasini shakllantirishning samarasi o'qituvchidan quyidagi ma'naviy fazilatlarga ega bo'lishni taqozo etadi.

- ochiq ko'ngillik, xushmuomalilik, mehribonlik, bola qanday bo'lsa shundayligicha seva olish;

- bolaning his-tuyg'ularini qadrlash, ruhiy holatini tushuna bilish;

- bolalarni ruhlantirish, qiziqtirish, o'zini tuta bilish, kechirimli bo'lish, shirinsuxanlik;

- ezgu sifatlari bilan namuna bo'la olish, olijanoblighi, odamiylighi bilan o'quvchilar idealiga aylanish;

- so'z va ish birligi bilan bolalar talabiga javob bera olish;

- muomala – munosabatda bola xohish-istagi, qiziqishi, yosh xususiyati, ruhiyati bilan hisoblashish, bolalarning har birini alohida va hammasini birgalikda tushunish;

- o'quvchilar yutug'idan quvonish, hayratlanish, dardiga sherik bo'lish va hokazo.

Ma'naviyat milliy xususiyatga ega bo'lib, u milliy urf-odatlar, tarbiya, an'analar, axloq-odob aqidalari, qadriyatlari, din, e'tiqod, madaniy-ma'rifiy qarashlar, ruhiy-psixologik jarayonlar majmuasidir.

O'quvchilarga rivoyatlar orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda faqatgina ularda insonlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar bayon qilinganlarini emas, balki salbiy tomonlari hikoya qilib berilganlariga to'xtash lozimdir. Chunki yuqorida bayon qilingan rivoyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'ziga xos saboq maktabi bo'lishi darkor.

Shunga binoan ota-ona va bola munosabatiga bag'ishlangan tarbiyaviy soat, kecha, kitobxonliklar, o'quvchini yagona va to'g'ri – o'z ota-onanga qanday hurmat-e'tiborda bo'lsang yoki bepisandlik qilsang, kelajakda sening farzandlaringdan ham senga shunday hurmat e'tibor bo'ladi yoki bepisandlik qaytadi degan – xulosaga olib kelishiga erishish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning mazkur samarali usulidan boshlang'ich maktab o'quv rejasiga kiritilgan barcha predmetlarini o'rganish jarayonida oqilona foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqish lozimligini alohida ta'kidlaymiz.

Ma'lumki, ochiqko'ngillik, xushmuomalilik, mehribonlik, bola qanday bo'lsa uni shundayligicha sevish kabi fazilatlar inson ma'naviy sifatlaridir. Shu boisdan ham o'quvchi ma'naviyatini shakllantirishda bolalarga mehr-muhabbat ko'rsatish, o'z mehrini bolalarga bab-barobar bera olish, har bir o'quvchini ta'lim oluvchi deb emas, balki uni inson deb his qila olish va unga xuddi o'ziday teng inson sifatida yondashish hamkorlik pedagogikasining o'qituvchi shaxsiga qo'yadigan talablarini hisobga olib ish ko'rish juda muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsida yaxshilik, mehribonlik qilish, shirinsozlik bilan muomalada bo'lish kabi ma'naviy sifatarni shakllantirishda o'qish, ona tili, musiqa darslarining imkoniyatlari juda kattadir. Chunki mazkur predmetlar bo'yicha darslar tuyg'ular va hissiyotlar asosida qurilayotgan mashg'ulotlardir. Shuning uchun ham darslarda bolalarni tushunish, ularni his qilish, his tuyg'ularini qadrlashni o'qituvchi diqqat markazida turishi kerak.

Baxtga qarshi kundalik amaliyotda ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu ochiq haqiqatni unitib qo'yadilar, o'quvchi shaxsini chetga surib qo'yib, uning shaxsi muhim siymo ekanligini yodidan chiqarib yuboradilar. Natijada dars jarayoni o'zining jozibaligini, qiziqarliligini yo'qotib qo'yadi.

Mazkur kamchilikdan qutilish uchun yuqorida zikr etilgan fanlar bo'yicha darslarda turli didaktik, tarqatma material, ko'rgazmali vositalar yordamida bolalarning o'zaro so'zlashishiga, fikr almashuviga imkon yaratish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida ma'naviyatni shakllantirish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish vazifasi ular uchun chop etilayotgan barcha darslik va o'quv qo'llanmalarining matnini xalqimizning asrlar sinovidan o'tgan urf-odatlarini, axloqiy qarashlarini ifodalovchi qonun, qoidalar, pand-nasihatlar, hadislar bilan izchil boyitib borishini taqozo etadi. Ayni paytda boshlang'ich sinflardan boshlab, o'quvchilarda jahondagi boshqa xalqlarning qadriyatlarini, urf-odatlariga ham hurmat va qiziqishni shakllantirish maqsadi ustuvorlik qilishi zarur. Shuning uchun ham darsliklarda boshqa xalqlarning tarixi, urf-odatlarini, qarashlarini ifodalangan matnlari o'rin olishi, agar shunday materiallar bayon etilgan o'quv vositalari yaratilgan bo'lmasa, ularni o'quvchini o'zi tayyorlashga burchli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, mazkur xalqlarning taraqqiyot darajasini, yuksalishini tan olishga, ularning turmush tarzidagi ijobiy jihatlarni ijodiy o'zlashtirishga o'quvchilarni pastki sinflardan boshlab odatlantirib borish, bag'rikenglikni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi shaxsi ma'naviy qiyofasini belgilashda fidoiylilik tushunchasi bosh omil ekanligini hisobga olib har bir boshlang'ich maktab o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonida Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk shaxslarning adabiyot, san'at, fan, madaniyat, Vatan mudofaasi yurt obodligi sohasida ko'rsatgan fidokoronaliq, jonbozligi bilan tanishtirib borish zarur.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ma'naviyatini yaxlit tizim asosida shakllantirish vazifasi nafaqat I-IV sinflarda o'qitiladigan o'quv materiallar mazmunini boy merosimiz bilan boyitish, o'quvchilarga ko'proq ularning ma'naviy olamini boyitadigan badiiy, tarixiy, memorial asarlari, o'zbek va jahon xalqlari ertaklari, qissa, hikoyalar o'qishni tavsiya etish, tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjohlar, osoru-atiqalar, ularning tarixi, bunyod etilishi bilan, balki zamonamiz qahramonlari, fidoiy insonlar, yozuvchi, olimlar, san'atkorlar, sportchilar ularning bevosita mehnat jarayonlari natijalari bilan tanishtirib borishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv rejasida «Musika madaniyati» o'quv faniga alohida e'tibor berilgan bo'lib, u yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqimizning milliy kuy va qo'shiqlari odamlarning orzu-umidlari, hayotiy kechinmalari, boy ma'naviy dunyosini o'zida aks ettirgan. O'zbek milliy musika madaniyatining bu sohadagi imkoniyatini nihoyatda katta ekanligini birgina ona allasi qo'shig'ida o'rsatamiz, «Alla» ashulasida onaning naqadar sodda, mazmunan boy, o'z bolasiga cheksiz mehr-muhabbati, uning istiqbolini o'zining dil izhori bilan tarannum etgan orzu-umidlari yotadi. «Alla»da ilgari surilgan yuksak g'oyani farzandning ongli, aqlli, esli-xushli, shirinsuxan, oqibatli, mehribon, kelgusida ota-ona suyanchig'i, madadkori bo'lish istagi ifoda etilganligi uni qanchadan qancha avlodlarni yuksak ma'naviyatli bo'lib shakllanishida muhim vositalaridan biriga aylantirdi.

Shu munosabat bilan musiqiy merosimiz, qadriyatlarimiz, ustoz-shogirdchilik an'alarini, milliy musika san'atimizning rivoji uchun beqiyos xizmatlarini ayamagan buyuk musiqiy allomalarimizning hayoti va ijodiy faoliyatlarini o'quv dastur va o'quv-metodik komplekslarga muntazam kiritish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich talim tizimida va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida atoqli bastakorlarimiz – M.Mirzayev, K.Jabborov, F.Sodiqov, S.Kolonov, N.Hasanov, Yu.Rajabiy kabi bastakorlarning musiqiy merosini targ'ib etish maqsadida o'tkaziladigan ko'rik-tanlov hamda tadbirlarda o'quvchilarni bevosita ishtirok etishlariga erishish, shubhasiz ularda milliy qadriyatlarimizga, buyuk milliy musiqiy merosimizga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish uning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Milliy mafkura jamiyatni ezgu maqsadlarga intilish sari birlashtirib, o'z maqsadlariga erishish uchun ma'naviy ruhiy kuch-quvvat beradigan manba vazifasini o'taydi.

Prezident I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli kitobida «Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga

xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, madaniy meros, madaniy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi» [2, 29-30] - deb ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy mezonlarini ko'rsatib bergan edi.

Boshlang'ich maktabda ta'lim-tarbiya berish orqali o'quvchilarning rivojlanishiga yordam beradigan asosiy omillarga: dars mashg'ulotlari, darsdan tashqari tadbirlar, jamoat topshiriqlari va o'quvchilarning dam olishlarini reja asosida tashkil qilish va hokazolar kiradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ma'naviyatni singdirishni amalga oshirishda uchraydigan qiyinchiliklarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviyatdan dars o'tishga doir ilmiy jihatdan asoslangan maxsus qo'llanmalarining yetarli darajada emasligi;

- boshlang'ich sinflarda fanlararo uzviylik va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash omillari keng o'qituvchilar jamoasiga tushunarli tarzda yetkazilmagan; bu sinflarda ishlayotgan o'qituvchilar bilan o'quvchilar, ota-onalar o'rtasidagi aloqa muayyan pedagogik tizimga solinmagan, nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilmagan;

- boshlang'ich maktabda o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun yetarli sharoitlar yaratilmagan;

- ma'naviy-axloqiy tarbiya borasida sinfdan tashqari ishlarni o'tkazishda jamoatchilikning yetarli darajadagi ishtiroki ta'minlanmagan;

- boshlang'ich maktabda ma'naviyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish bo'yicha olib borilgan maxsus ilmiy izlanishlar zamon talabiga ko'ra qayta ishlab chiqilmagan.

Boshlang'ich maktabda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi samaradorligini oshirish quyidagilarni ko'zda tutadi:

- boshlang'ich sinflarda ma'naviy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning hamda fanlararo uzviylikning o'ziga xos maqsadi va vazifalari to'g'ri belgilanishiga erishish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda yaratilgan pedagogik tizim asosida ish olib borish;

- o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari, psixologiyasi, tursush-tarzi hamda har bir maktabning mahalliy sharoitini hisobga olgan holda ma'naviy ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish jarayonining o'ziga xosligini hisobga olish;

- boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini joriy etish va hokazo.

Maqollar xalqimizning nodir ma'naviy boyligi bo'lib, o'quvchilarda milliylikni tarbiyalashga, ularni o'zligini anglashga da'vat etadi hamda yosh bolalarning fikrlarini chuqur, ixcham, aniq va obrazli qilib ifodalashga o'rgatadi.

Maqollarda o'zbek xalqining turmush-tarzi, ma'naviy qiyofasi, e'tiqodi, odamlarga, tabiatga munosabati o'z ifodasini topgan. O'zbek xalqi doimo Vatanga sodiqlik, mardlik, qag'ramonlik, kamtarlik, samimiylik kabi yuksak axloqiy fazilatlarni yosh avlodga singdirishga alohida e'tibor berib kelgan;

«Vataning tinch – sen tinch», «Botirdan o'lim ham qo'rqqar», «Yigitning botirini maydonda sina», «Kamtarga kamol – manmanga zavol».

Xalqimiz ayrim odamlarda uchraydigan nodonlik, qo'rqqoqlik, yalqovlik, ochko'zlik kabi salbiy sifatlarni keskin qoralash orqali ham yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda ham boy tajriba to'plagan;

«Amal tegsa nodonga, o'zini urar har yonga», «Axmoqqa javob sukunat», «Yolg'onchi yolchimas, o'g'ri boyimas», «Insofsizga erk bersang, elni talar».

Oila ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Prezident I.A.Karimovning ta'biri bilan aytganda, «Oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy ma'naviyatimizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi» [1].

Oiladagi sog'lom muhit – sog'lom mafkurani shakllantirish manbai. Sog'lom mafkura yoshlarga oilada kun tartibiga rioya qilish, ertalabki badan

tarbiyani muntazam bajarish, turli oilaviy o'yin, sport musobaqalarda ishtirok etishni tarbiyalash orqali singdiriladi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiya elementlarini tarkib toptirish faqatgina maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining bu sohadagi imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo qilib qolmasdan, balki ta'lim muassasasining oila, mahalla bilan hamkorlikda ish ko'rishni kun tartibiga qo'ymoqda. Mahallalarda dostonchilik, navoyxonlik, xalq maqollari, aytishuv, topishmoq va hokazolarning mazmun-mohiyatini chuqur tushunadigan va ularni yosh avlodga yetkazishga moyil otaxon, onaxonlar juda ko'p. Vazifa mahalla pedagoglari o'qituvchilar hamkorligida uchrashuv, suhbatlar tashkil qilishdan iboratdir.

«Avesto» umuman koinot va zamin, inson va hayot, o'lim va abadiyat singari butun insoniyatga mushtarak va savoblar haqida hikoya qiladi.

«Avesto»da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzular o'z ifodasini topgan.

«Avesto»da faqat odamnigina emas, balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqida gi kitob. Avesto yerning, daryolaru bog'lar, tog'laru buloqlar, ko'lu sahrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o'simligu giyohlarning bunyod etish tarixiga doir asar.

Zaratushtra ta'limoti Avestoda olg'a surilgan ezgu fikrat, ezgu kalom va ezgu amal xamon insoniyatni ezgulikka chorlab, odamlarni ruhan poklab, ma'naviyat chamani tomon yetaklay kelmoqda.

Zardushtiylikda ekin yerlarini ko'paytirish, shudgor qilingan joylarni asrab-avaylab, uni muqaddas hisoblab sajda qilish ilohiy nizom tusini olgan. Olovga sig'inish, yer va olov xudosi Mitraga, yaylov xudosi Romanoga ibodat qilish, uy-joy qurish, uni olov bilan, uy hayvonlari, xotin, bola-chaqa bilan to'ldirish, o'simlik va daraxt ko'kartirish, katta-kichik uy hayvonlarini ko'paytirish, yerni parvarish qilish zardushtiylik asosini tashkil qiladi.

Zardushtiylik ta'limotiga e'tiqod qo'ygan odam tozalik va poklikka rioya qilib, hayvonlarga ozor bermasligi kerak.

Zardushtiylarda tabiat muhofazasi va muhit tozaligini saqlash, turli kasalliklarning oldini olish maqsadida – sanitariya-gigiyena qoidalari amalga oshirilgan. Axlatlarni bekitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mib tashlash, olov, issiqlik va sovuqlik yo'li bilan kiyim-kechaklar va oziq-ovqatlarni zararsizlantirish, kul, sirko, sharob, turli giyohlar tutatish.

Yer, suv, havo hamda barcha o'simliklarni e'zozlash natijasi o'laroq tabiatning xayotiyli va gullab-yashnashidan dalolat beruvchi baxoriy go'zallik – «Navro'z»ni shodu xurramlik bilan kutib olish ham zardushtiylik zamonlaridan buyon bizga meros bo'lib kelayotgan bayramdir.

Otashparastlarning asosiy mashg'ulotlari chorvachilik va dehqonchilik bo'lgani uchun ular uy hayvonlariga o'zgacha munosabatda bo'lganlar.

Shunday qilib, poklik otashparastlar uchun hamma narsadan ustun axloqiy burch sanalgan. Ular boshdan oyoqqacha vinishni odat qilganlar. Daryoni juda hurmat qilishgan. Unga qarab siymaganlar, tupurmaganlar va qo'lini tiqib turib yuvmaganlar.

Otashparastlar dunyoqarashiga ko'ra yaxshilik doimo tozalik, yorug'lik va hayot bilan bog'liq, yomonlik esa ifloslik, qorong'ulik va xarobazor ramzi.

Zardushtiylik ta'limoti odamlarda hayotga, yashashga ishtiyoq va ishonch bag'ishlagan, ko'pgina qonunlashtirilgan odatlardan forig' bo'lgan dunyoviy quvonch va rasm-rusumlarni o'z ichiga olgan, to'laqonli ma'naviy hayot kechirish imkonini bergan. Bu ta'limotning barxayotlik asosi odamlarni yorug' dunyodan voz kechishga emas, undan bahramand bo'lishga qaratilgan.

Yuqorida bayon qilinganlar «Avesto» adabiyotini o'quvchilarning o'zligini angalashiga, tarixiy xotiramizga sadoqat, milliy g'urur, ona-Vatanga mehr-muhabbat tuyg'usini tarkib toptirishda tengi yo'q manba ekanligidan dalolat beradi.

Respublikamiz rivojlanishini hozirgi shiddatkor taraqqiyot bosqichida «Avesto»dagi odob-axloq, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, nonni muqaddasligi, xalq farovonligi, yurt tinchligi haqidagi pand-nasihatlar, da'vatlar boringki, musulmonni haqiqiy musulmon etib tarbiyalaydigan kitob.

Insoniyatni ezgulikka chorlab, odamlarni ruhan poklab ma'naviyat chamani tomon yetaklab kelayotgan muqaddas kitobni takror va takror mutoala qilish va amaliyotga tatbiq etish har bir O'zbekistonlikning muqaddas burchidir.

Zardushtiylik dini va «Avesto» kishilarga madaniy turmushga da'vat etadi. Urf-odat, e'tiqod, ibodat paytida qiroat qiladigan oyatlari, marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlar, minglab xalq ohanglari haqida ma'lumot olamiz. Bundan tashqari kitobda qadimgi xalq og'zaki ijodiga taalluqli yagona syujetlar – dostonlardan parchalar mavjud. Qayumars, Jamshidlar faqat adolat uchun, yerni gul-gul yashnatish, barcha jonzotlarni osoyishtalikda saqlash uchun kurashadilar. Avestoda kishilarni madaniy turmushini rivojlantirish va oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi xususida ham qimmatli mulohazalar ifodalangan.

Avestoda qadimgi Xorazm zaminida yashagan xalqlarning axloq-odobiga, ta'lim-tarbiyasiga, kasb o'rganishga doir fikr mulohazalar o'z ifodasini topgan.

Atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri.

Yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish, bolalarda ekologiya xususidagi tasavvurlarni kengaytirida tarix fanining imkoniyati katta. Bundan 500 yil, 5 ming va 10 ming yil avval o'lkamiz tabiati, o'simliklar va hayvonot olami qanday bo'lganligi haqida ma'lumotlarni «Avesto»dan topish mumkin.

Ona tili mashg'ulotlarida «Avesto»dan tanlab olingan ko'plab mashqlar o'quvchilarda tabiatga mehr uyg'otishda qo'l keladi. Mashqlardan suv va havo, o'simlik va hayvonot olamiga taalluqli fikrlar ifodalangan. «Avesto»dan olingan matnlarni tahlil qilish orqali ham ularda tabiatga mehr uyg'otish mumkin.

Adabiyot fanidan o'qitilayotgan xalq og'zaki ijodini – «Avesto» misolida hayvonlar va o'simliklarning xususiyatlari, ularning tabiatdagi o'rni ochib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng xalqimizning qalb to'rida mudrab yotgan, o'z o'rnini topishga yo'l topa olmayotgan qadimiy qadriyatlarimizga tashanalik tuyg'ularining gurkirab o'sayotganligi hamda mazkur chanqoqlikni ilmiy ravishda qondirishga bo'lgan tabiiy ehtiyojni qondirish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, vatandoshimiz shayx, imom va xofiz (Qur'on va payg'ambar hadislarini yoddan bilib, xalq orasida targ'ibot etuvchi) Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra al-Buxoriyning «Al-Jome' as-Sahih» («Ishonchli to'plam») asarida (mazkur asar IV jildan iborat) faqatgina o'tmish ajdodlarimizgina emas, balki kelajak avlodlarimizni ham chin insoniy hislatlar egasi qilib tarbiyalashning pedagogik asoslari ham nazariy va amaliy jihatdan sarhisob qilib berilgan.

Bu yerda biz ulug' mutafakkirning hadislar to'plamidagi tarbiyaviy javohirlar haqida to'xtalamiz.

Ota-bobolarimizning azal-azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatganini «Avesto»da bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning muqaddas ekanligini tasdiqlab ularni ko'klarga ko'targanligini uning sahifalarida bitilgan quyidagi so'zlardan bilib olish qiyin emas. Toza suv bilan bog'liq ko'l, quduq va buloqlarga har qanday nopok narsalar yaqinlashmasligi kerak. Poklik otashparastlar uchun hamma narsadan ustun turgan. Unda tabiatni muhofaza qilish haqida diqqatga sazovor fikrlar aytilgan. Tabiat muhofazasi va muhit tozaligini saqlash, turli kasalliklarni oldini olish haqida diqqatga sazovor fikrlar aytilgan.

Ajdodlarimiz tomonidan yangi yilning boshlanishini zargarona astronomik aniqlik bilan belgilanganligini, ming yillar o'tganligiga qaramay, bu haqiqatni o'zgartirib bo'lmasligiga o'quvchilar diqqatini jalb qilish, ular o'z xalqi tarixi, uning madaniyati bilan faxrlanish tuyg'ularini shallantiradi.

«Avesto»da o'tmish ajdodlarimiz bolani o'qimishli, bilimdon bo'lishiga alohida e'tibor bilan qaraganliklari va bu borada ibratli an'analarni vujudga

keltirganliklarini unda bayon qilingan quyidagi mulohazalar orqali guvohi bo'lamiz.

«... U kunning ibtidosi va intixosida, tunning avvali va oxirida bilim olmog'i, tafakkur va donishga limmo-lim bo'lmog'i, nihoyat ashavonlik yo'lida shunday manzalatga yetmog'i kerakki, ilohlar shaniga hamdusanolar aytsin, ularni ezgu kalomlar bilan ardoqlasin. Va shu yo'sinda o'z bilimini ziyoda qilsin.

... U kunning o'rtasi va tunning o'rtasida juda rohatlanib, sirli og'ushlarda mast bo'lgancha orom olmog'i, shundan so'ng ilm ortida shu qadar jiddu-jahd etmog'i kerakki, o'tmish donishmandlar qoldirgan hamma narsani jonu dildan o'rganib olsin».

«Avesto» o'z davrining ta'lim-tarbiya muammolari bilan bog'liq ilg'or g'oyalarni ham ilgari suradi. Masalan, bu kitob ta'limoticha, yoshlar faqat jismoniy baquvvat bo'lishi yetarli emas, ular teran ma'rifatli bo'lishi, ma'naviy komillikka intilishi, mehnatsevar, muruvvatli bo'lmoqlari kerak. Bu ayni biz bugun o'zimizning yangi avlodlarimizda ko'rishni niyat qilayotgan komil insoniylik sifatlarining xuddi o'zginasidir.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashning hozirgi ahvoli

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ilgari surgan fikr va g'oyalarning ilmiy ta'siri nazariy-amaliy tadqiqot saboqlari natijasi o'laroq ma'naviyatning tarkibiy qismlari aniqlangan:

- madaniy-ma'rifiy yuksaklik;
- ijtimoiy-didaktik taraqqiyot;
- falsafiy-pedagogik o'sish;
- iymon-e'tiqodning butligi;
- milliy axloq-odob normalariga to'la rioya qilish;
- ilm-ma'rifatli bo'lish;
- insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik;
- milliy qadriyatlarga muhabbat;
- fidoiylik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik, poklanish;
- dinga e'tiqodlilik;
- vatan va xalq mustaqilligini doimiy ravishda himoya qilish va unga xizmat qilish;
- ajdodlar va ularning merosiga chuqur hurmat;
- yuksak millatlararo muomala madaniyatiga ega bo'lish.

Milliy ma'naviyat va uning asosiy mohiyati, birinchidan, islohotlarning ikkinchi bosqichida ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk insonlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish; ikkinchidan, xalq xo'jaligining barcha sohalarida ma'naviy poklikka to'la erishish; uchinchidan, milliy qadriyatlarni to'la tiklash va shu asosda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish; to'rtinchidan, O'zbekiston mustaqilligini rivojlantirish va takomillashtirish ishlarida faol qatnashish, bu yo'lda fidoiylik namunalarini ko'rsatish; beshinchidan, mustaqil jamiyat va uning taraqqiyoti uchun halol xizmat qilish, O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonch

tuyg'ularni tarbiyalash; oltinchidan, Prezident farmoyishlariga sodiq bo'lish, qadrlash va amal qilishdan iborat.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jamiyatimizning muhim ehtiyoji sifatida e'tirof etilgan.

Ma'lumki, ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi keng qamrovlidir. Uning qirralari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ma'naviy barkamol inson nafaqat o'z oilasi, qavm-qarindoshi, mahallasi, balki butun O'zbekiston xalqining farovonligi uchun kurashadi.
2. Odob-axloq, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblaydi.
3. Ota-bobolardan qolgan madaniy merosni qadrlaydi.
4. Milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi.
5. Vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi.
6. Diyonat va adolat, mehr-shavqat va ezgulikni himoya qiladi va b.q.

Jamiyatimizni tubdan yangilash va uni tez sur'atlarda yuksaltirish O'zbekiston xalqining dunyoqarashi, ma'naviyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu masalaga to'xtalib I.A.Karimov shunday yozadi: «O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Ular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik» [3, 65-b.].

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, adolat va tenglikda ko'zga tashlanadi. Inson qadr-qimmatini baholashda ana shu adolat va tenglik muhim rolni bajaradi. Inson adolat va tenglikka oilada, mahallada, istiqomat qilayotgan joyida, jamoat orasida, xullas, har soniyada muhtojdir.

Shu munosabat bilan ota-onalarning, aka-ukalarning, opa-singillarning, o'qituvchilarning bir-birlariga munosabati va qarashlarida adolat va tenglikni namoyon bo'lishlarining ayrim ko'rinishlarini qaraymiz.

Jumladan, IV sinfda o'qiyotgan aka dars qilayotganda ukasi oyoq tagida «g'ing-g'ing»lab mashinasini o'ynayveradi. Akasi bir-ikki bor ukasiga boshqa uyga chiqib o'ynashini iltimos qiladi. Ammo uka quloq solmaydi. Jahli chiqqan aka ukasining mashinasini olib eshikdan uloqtiradi. Bundan xafa bo'lgan uka: akam urdi, - deb onasiga yig'lab boradi. Ona kichik o'g'lining gapiga quloq solib: kap-katta yigit, kichik bolani urdingmi, - deb koyiydi va bir shapaloq uradi. Bu holatni ko'rgan kichik o'g'il xursand. Ona ham kichik o'g'lining yuzidagi tabassumdan boshi osmonga yetgan holda uydin chiqib ketadi. Ammo, bu masala ona tomonidan adolatli hal qilindimikan?

Haqiqatdan ham adolatning mohiyatiga ko'ra, bu hayotiy masalani tahlil qilganimizda bu yerda akaning ham axloqiy, ham huquqiy huquqlari paymol qilindi. Natijada, aka-uka o'rtasida mehrsizlik munosabatlarining paydo bo'lishiga tag zamin yaratiladi. Ukaning esa bundan buyon yolg'on gapirishiga yo'l ochib berildi. Bunday holatlar bir necha bor takrorlansa, aka: ota-onam mendan ko'ra kichkina ukamni yaxshi ko'rar ekan, - degan xulosaga keladi. Adolatsizlik zamirida aka ichimdagini top deydigan, oiladagilarga va aka-ukalariga bemehr bo'lib tarbiyalana boshlaydi. Agar ona qani yurchi o'g'lim, - deb aka va ukani yuzlashtirib, haqiqatni, ya'ni akaning urmaganini aniqlaganda, ukaning tuhmat qilayotganini bilib, o'z vaqtida chora ko'rganida edi aka-ukalar orasida mehrning, ishonch, bir-birini hurmat qilish, aldamaslik, qilgan aybini tan olib ish ko'rish kabi ko'nikmalar oilada shakllantirilgan bo'lar edi.

Ota-ona va farzandlar orasidagi adolatning axloqiy va huquqiy buzilishlari salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Oilalarimizda bolalarning yoshligidan boshlab yaxshi sifatlarni shakllantirib borishga jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim. Hayotiy masalalarni hal qilishda ota-onaning bilimi, ma'naviyati, o'zini tutishi, yurish-turishi katta ahamiyatga egadir.

Farzandlar, o'quvchilar, qolaversa odamlar orasida adolatparvarlik hislatlarni kamol toptirishda o'rnak ko'rsatish, tushuntirish, rag'batlantirish, tanbeh berish, uyaltirish, suhbat, munozara va bahs kabi usullardan foydalanish asqotadi.

O'qib-uqqan, chuqur ma'naviyatli, adolatli va adolatsizlikning farqiga tushungan inson qaysi yo'ldan borayotganligini tushunib yetadi. Yurtiga nisbatan mehr, g'urur paydo bo'ladi. Natijada u ham Vatanining ravnaqiga munosib farzand sifatida o'z hissasini qo'shadi. Ajdodlarimiz yashab o'tgan, meni bag'riga olib ulg'aytirgan Vatan uchun men nima qila oldim, meni go'dakligimdan yedirib-ichirgan ota-onam, ona zamin, qonlari tomirimda jo'sh urayotgan ajdodlarimiz shaniga munosib ishlar qilayapmanmi, - degan savollarni o'z vijdoni oldiga ko'ndalang qo'yadi.

Demak, yuksak darajadagi ma'naviyat, fidoiylilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanini qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlar bilan bevosita bog'liqdir.

Shu boisdan ham ma'naviyatni qadrlash, uni himoya qilish, asrab-avaylash istiqbolli kelajakka umid bag'ishlaydi. Xalqning yuksak ma'naviyatini targ'ib etishda fan va madaniyat, adabiyot va san'at muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Inson ma'naviy ruhiga ta'sir etishda va ma'naviyatini mustahkamlashda ta'limning roli benihoya kattadir. Ta'limning qay darajada berilishi esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmi, bilimdonligi, iqtidori, uslubining rang-barangligiga bevosita bog'liqdir.

Shu bois ular tinmay bilim ko'lami va doirasini kengaytirib borishlari uchun doimiy va uzviy ravishda fan yangiliklari bilan tanishib borishlari lozim, boshlang'ich maktabda o'qitiladigan fanlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha imkoniyatlarini mustaqil ravishda namoyon qilishlari hamda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maqsad va vazifalarini aniq belgilashlari va kafolatlangan natijalarga erishish uchun ta'lim jarayonini loyihalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipiga tayanilsa, ularni dialektik birlikda olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, kichik maktab yoshidagilar uchun nashr etilgan o'quv adabiyotlarida tarbiya fani manbai, vositasi va metodologiyasi

sifatida muqaddas «Qur'oni Karim» hamda payg'ambarimizning hadislariga, shuningdek, Az-Zamaxshariy, Ahmad Yasavviy, at-Termiziy singari allomalarning asarlariga va o'gitlariga tayanganligini ko'rish qiyin emas. X-XIV va XVI asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida fan va madaniyat gullab yashnagan davrlarda xuddi shu yo'l va usuldan keng foydalanilgan. Bu tarixda sinalgan muborak tajribani har bir sinfda, har bir predmetni o'qitish va o'qishda qo'llash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot ishimizda ona tilidan o'quv dasturi va darsligi [36, 190-b.] tahlil qilindi hamda darslik asosida o'qitish jarayonida uning aksariyat ko'pchilik mavzu, savol va mashqlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha keng imkoniyatlar mavjudligi namoyon qilindi.

Ma'lumki, insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, axloqi va madaniyatidan tashkil topadi. Inson qancha xulq-atvor, yaxshi fazilatlar sohibi bo'lsa, u shuncha ma'naviy komil hisoblanadi.

Odob insoniy kamolot sifatida yoshlarda ulug'larga nisbatan mehr uyg'otadi, har xil musibat, azob-uqubatlarni keltirib chiqaruvchi hurmatsizlik, manmanlik, kamsitish, dag'allik va hokazolarni bartaraf etishga olib boradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida Alisher Navoiyning yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirishdagi ibratnamunalik rolga shunday baho bergan edi: «Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlashuvchi biron-bir inson yo'qqi, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir» [2, 47-b.].

Bu o'rinda o'qituvchi Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida bayon qilingan fikrlarini yoddan chiqarmasligi zarur: «Odobdan kichiklarga shunchalik foyda yetadigan bo'lsa, kattalarga nechog'lik ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze' mehr-muhabbatning zebi-ziynatidir, odobsizlik do'stlikka putur yetkazadi.

Odob va tavoze' do'stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi. Tavoze' va odob egalariga hamma ta'zim qiladi va hurmat bildiradi. Odob urug'ini ekkan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari ravnaq topadi. Agar kishi odob va tavoze' kabi yaxshi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi» [21, 48-b.].

Tabiatshunoslik darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, shakl, vositalari haqida so'z yuritishdan oldin ma'naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati, unga berilgan ta'riflarni qarab chiqamiz.

O'qituvchi «Ma'naviyat» so'zining «ma'ni» bilan o'zakdosh ekanligini tushuntirib, uni inson ichki olamiga, ko'zga ko'rinmas tomon – ruhi, qalbi, ko'ngliga bog'laydi. U inson siyratini tashkil etuvchi keng ko'lamli tushuncha bo'lib, inson odob-axloqi, fel-atvori, yaxshi-yomonligi, intellekt darajasi, tafakkur tarzi kabi ichki omillarni qamraydi.

Ma'naviyat so'zi keng qamrovli tushuncha bo'lib, juda ko'p jamiyatshunos, adabiyotshunos, axloqshunos, san'atshunos va boshqa soha olimlarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Shu bois mazkur tushunchaga berilgan ta'riflar ham rang-barangdir. Quyida ulardan ayrim namunalar keltiramiz:

- ma'naviyat insonning botiniy va zohiriy olami;
- ma'naviyat millat nishoni;
- ma'naviyat inson qalbidagi nur;
- ma'naviyat odamning ruhiy va aqliy olamining majmui;
- ma'naviyat jamiyatning, millatning yoki ayrim kishning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha;
- inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlar ma'naviyat deb ataladi.

O'qituvchi ma'naviyat tushunchasini izohlayotganda ajdodlarimiz qoldirgan merosni bolalarga o'rgatish orqali ularda o'zlikni anglash hissini uyg'otishi muhim

ahamiyat kasb etadi. Bunga erishmoq uchun ularga milliy-ma'naviy muhit yaratish zarur. Shu boisdan ham mamlakatimiz, xalqimiz mustaqillikka erishgan kunidanoq xalqimizning boy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini qayta tiklanib yosh avlodga taqdim qilinmoqda. Chunki, o'zlikni unitish ma'naviy tubanlashuvga, axloqiy tushkunlikka, o'tgan ajdod va kelajak avlodlar qarshisida javobgarlik hissini yo'qotishga olib keladi.

Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar tabiatshunoslik bo'yicha boy ilmiy meros qoldirganlar. O'tkazilgan tahlillarning ko'rsatishicha, sho'rolar hukmronligi davrida o'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari tabiatshunoslik bo'yicha yozib qoldirgan so'nmas asarlarini har tomonlama o'rganishga, targ'ibot qilishga hamda o'quv dasturlarida tezroq va kengroq o'rin berishga deyarli e'tibor berilmadi, desak xato bo'lmaydi.

Bobokalonlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va yana allaqancha nomlari va ishlari unutilib ketgan allomalari bo'lgan Movarounnahr zaminida yashagan xalq tabiatshunoslik ilmining xazinasiga durdonalar qo'shgan olimlar bizning davrimizda ham ko'plab yetishib chiqqan. Ularning orasida o'zbek xalqining shuhratini olamga yoygan munosib vakillari ko'p bo'lsa ham ularning birortasining nomi maktab darsliklariga kiritilmagan. Xuddi shuningdek, biologiya, kimyo va boshqa fanlar bo'yicha pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida ham ularning nomlari va ishlari asossiz ravishda tilga olinmayotganligini ta'kidlab, sobiq sovet davrida o'quv adabiyotlarini tayyorlashda yo'l qo'yilgan noilmiy amaliyotni ham ta'lim-tarbiyani tashkil etishda hisobga olish zarur.

Inson ma'naviy ruhiga ta'sir etishda va ma'naviyatini mustahkamlashda ta'limning roli benihoya kattadir. Ta'limning qay darajada berilishi esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmi, bilimdonligi, iqtidori, uslubining rang-barangligiga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ma'naviyat elementlarini singdirish vazifasi o'qituvchilardan tinmay bilim ko'lamini va doirasini kengaytirib borishlari uchun doimiy ravishda fan yangiliklari bilan tanishib borishlari lozim. Hamda dars va sinfdan tashqari

mashg'ulotlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maqsad va vazifalarini aniq belgilashlari va bunda kafolatlangan natijalarga erishish uchun ta'lim jarayonini loyihalash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari shart.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, shakl, vosita va usullari ko'p jihatdan tabiatshunoslik fanining bu sohadagi imkoniyatlarini namoyon qilishga bog'liqdir. Shu munosabat bilan quyida tabiatshunoslik predmeti bo'yicha davlat ta'lim standarti (DTS)ni o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablarni qarab chiqamiz.

Ayni paytda bugungi maktab o'quvchilari o'z zamonasidan bir necha ming chaqirim oldin hamda o'z yurtidan bir necha ming chaqirim uzoqda yashagan va ijod etgan Ovro'pa tabiatshunoslari haqida tasavvurga ega bo'lgan holda «oldidan oqqan daryo» larning qadriga yetmaydilar.

Mehnat qahramonlari O.Sodiqov, S.Yunusov hamda har biri o'z maktabini yaratgan K.Z.Zokirov, A.To'laganov, A.Muhammadiyev, S.Miraxmedov va boshqalarning tabiatshunoslik faoliyati bilan tanishtirish o'quvchilarni qiziqtirish va ona Vataniga, xalqiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashning qudratli omili bo'la oladi. Bu boradagi ishlarni turli shakl, metodlar orqali bajarish mumkin.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lib, boshlang'ich (1-4 sinflar) va umumiy o'rta ta'lim (1-9 sinflar) ni qamrab oladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich hamda umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasini belgilab beradi.

Boshlang'ich (1-4 sinflar) ta'limda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablarda har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturida o'z aksini topgan.

IKKINCHI BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAVYI-AXLOQIY TARBIYALASHDA INNOVASION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MAZMUN, SHAKL VA METODLARI

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars mashg'ulotlari jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda zamonaviy o'qitish texnologiyalari

Respublikamizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etilmoqda.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning strategik maqsadlariga erishishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, o'quv reja va dasturlari, o'quv-metodik majmualar, yosh avlodni o'qitish, tarbiyalashning zamonaviy shakl va usullarini rivojlantirib borishning o'rni hamda ahamiyati kattadir. Yoshlarni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashning boy milliy tarixiy-madaniy an'analari, xalq urf-odatlari, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Inson ma'naviy ruhiga ta'sir etishda va ma'naviyatini mustahkamlashda ta'limning roli benihoya kattadir. Ta'limning qay darajada berilishi esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmi, bilimdonligi, iqtidori, uslubining rang-barangligiga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviyat elementlarini singdirish vazifasi o'qituvchilardan tinmay o'z bilim ko'lami va doirasini kengaytirib borishni talab etadi. Hamda ular dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maqsad va vazifalarini aniq belgilashlari va bunda kafolatlangan natijalarga erishish uchun ta'lim jarayonini loyihalash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim.

Pedagogik innovasiyalarni yaratish va qo'llash ta'lim-tarbiya sohasida bugungi dolzarb muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shu boisdan ham pedagogik innovasiyalarni izlab topish, tahlil qilish asosida eng ko'p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo'llash tartibini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan usullarni, o'qitish shakllari va vositalarini izlaydi, takomillashtiradi.

Boshlang'ich ta'limda sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularni darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, milliy ma'naviy merosimizga sodiqlik, ajdodlar ruhini hurmat qilishga, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiya metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bunday interfaol metodlarga «Fikriy hujum», «Yalpi fikriy hujum», «6x6x6», «Fikrlarning shiddatli hujumi», «Aqliy hujum», «Rolli o'yinlar», «O'yinli sudlar», «Bahs-munozara», «Yechimlar daraxti», «Ikki qismli kundalik», «Sinkveyn», «Klaster», «» «Sayohat», «B-B-B jadvali», «Birgalikda o'qitish», «Zigzag», «Pinbord», «Debat», «Baxtli voqyea», «Kim baxtli bo'ladi?» va boshqalarni kiritish mumkin [30, 49].

«Fikriy hujum» («Mozgovaya ataka») metodi

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayoning dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. «Fikriy hujum» metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning har bir ishtrokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan

maqsad o'quvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

«Yalpi fikriy hujum» metodi

Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qo'llash mumkin.

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi

So'z yuritilayotgan metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati quyidagichadir;

- jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

- o'quvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodni ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo'nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi;

- 1) o'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;
- 2) vaqtni iqtisod qilish;
- 3) har bir o'quvchini faolikka undash;
- 4) ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

«6x6x6» metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatiga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zoari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

«6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir;

- 1) guruhlarning har bir a'zosini faol bo'lishga undaydi;
- 2) ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- 3) guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;

4) ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrni himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi mashg'ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20) daqiqa mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5,6,7 va hatto 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida «6x6x6» metodi qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham bir muncha ko'p vaqt talab etiladi. Suz yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir nechta mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

«6x6x6» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishini talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. «6x6x6» metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi;

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6ta stol atrofiga 6tadan stul qo'yilib chiqadi.
2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6ta guruhga bo'linadilar.

O'quvchilarni guruhga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin; 6ta stolning har biriga muayyan obyekt surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga turli obyektlar surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada ta'svirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslaxatlar beradi, yo'l - yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

Aqliy hujum

Aqliy hujum (breynstorming) bu g'oyalarni ilgari surish – generasiya qilish usuli bo'lib, qatnashchilarni birlashgan holda, ma'lum bir vaqt oralig'ida, muammoni tezkor yechishga qaratilgan faoliyat olib borishlari bilan asoslanadi.

Metodning asosiy vazifasi muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta'lim oluvchilarni motivasiyasini uyg'otishdir. Undan maqsadli foydalanish ijodiy, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, o'quv materialini tezkor o'zlashtirish imkonini beradi. Guruh oldiga qo'yigan muammo bo'yicha o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma bildirilishi so'raladi.

Belgilangan qisqa muddat oralig'ida o'nlab g'oyalarni to'plash imkoniyatlari ochiladi, g'oyalarning ko'pligi muammoni oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo'ladi.

Breynstorming qoidalari:

- ilgari surilgan g'oyalar baholanilmaydi, tanqid ham qilinmaydi;
- ko'proq g'oyalar yig'ishga harakat qilinadi;

- muammoning yechimiga mos bo'lmagan g'oyalar ham qo'llab-quvatlaniladi;
- g'oyalar yig'ish uchun vaqt aniq belgilanadi va rioya qilinadi;
- bildirilgan fikrlar to'ldiriladi, kengaytiriladi;
- natijaviy xulosalar qayd etiladi.

Aqliy hujum metodining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchi
I bosqich. Tayyorlov	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni, natijalarni, baholash mezonini shakllantiradi.	
II bosqich. Kirish	Mavzuni maqsad, natija va baholash mezonini e'lon qiladi. Miyaga hujum usuli maqsadni amalga oshirish vositasi ekanligini tushuntiradi. Berilgan muammoni bayon qilib, boshlash to'g'risida buyruq beradi.	
III bosqich. G'oyalarni kiritish	G'oyalarni magnitafon yoki videolentaga, qog'oz varag'iga yoki doskaga yozib olishni tashkil qiladi.	Muammoni yechish bo'yicha g'oya va takliflar haqida mulohaza yuritadilar.
IV bosqich. Tahlil	Taklif qilingan baholash mezonlaridan kelib chiqqan holda ilgari surilgan g'oyalarni	Bildirilgan g'oyalarni, takliflarni guruh (jamo) bo'lib tahlil qiladilar. Eng

	tahlil qilishni tashkil etadi.	qulay va maqsadga muvofiqlarini aniqlaydilar.
V bosqich. Yakun yasash, tahlil va baholash	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishlari mumkin.

Pinbord usuli

Doskada mustahkamlash (pinbord). Munozara, suhbat yoki so'rovning amaliy usul bilan bog'lanib ketishi pinbord metodining mohiyatini tashkil etadi. Uning afzallik funksiyalari rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: o'quvchilarda muloqot yuritish, munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrlarini nafaqat og'zaki, balki yozma bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Bu metodda o'quvchilar tomonidan bildirilgan yozma yoki og'zaki fikrlar, ilgari surilgan g'oyalar to'g'ri, muammo yechimiga yaqinroq va noto'g'ri javoblarga ajratilib doskada tahlil etilishi, % larga ajratilishi ham mumkin.

Tahlil qilishda o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijaviy xulosaga asosan o'quvchilar bilan ishlashning keyingi shakllari belgilab olinadi.

Pinbord usulining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchi
I bosqich. Tayyorlov	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi, natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi (muzokarani) savol va asosiy fikrlarni shakllantiradi.	
II bosqich.	Mavzu tuzilishini	

Mavzuni ishlash	aniqlaydi, o'z mulohazalarini bildiradi va o'quvchilarga o'z nuqtai nazarlarini bayon etishni taklif etadi. «Pinbord» usulini tushuntiradi. Munozara boshlanishini tezlashtirish uchun bir nechta tayyorlangan savollarni berishi mumkin.	
III bosqich. O'z xulosalarini yozma bayon etish	Kuzatadi.	Munozara davomida shakllangan fikrlarini asosiy xulosalar ko'rinishida qog'oz varag'i yoki kartochkaga yozib daskaga ilib qo'yadilar.
IV bosqich. Umumlashtirish	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak berish.	O'quv guruhining 2-3 a'zosi o'rtoqlari bilan maslahatlashgan holda mazmuniga qarab ma'lumotni tartiblaydilar va guruhlarga bo'ladilar. Strelka, chiziq va boshqa belgilar yordamida ularning o'zaro munosabatini: bir butun yoki qarama-qarshi nuqtai nazarni shakllantiradilar.
V bosqich. Yakun yasash, tahlil qilish va natijalarni baholash	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishni amalga oshirishlari mumkin.

Quyida IV-sinf ona tili darslarida sayohat usulini qo'llashga doir mashg'ulotning mazmunini keltiramiz.

Sayohat usuli

1. Dars mavzusi: gap va gap bo'laklari shahriga sayohat [36, 5-12-b.].
2. Dars turi: mustahkamlash darsi.
3. Darsning maqsadlari:

a) ta'limiy maqsadi: gap va gap bo'laklari haqida olingan bilimlarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning nutqiy go'zalligini shakllantirish, chiroyli gapirishga o'rgatish, gap bo'laklarini ajratish va hayotda qo'llash bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

c) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning gap va gap bo'laklariga doir bilim, ko'nikma va malakalarni, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

4. Darsning jhozlanishi: mavzuviy plakat, jadval, suratlar, tarqatma materiallar va h.k.

5. Darsning texnologik xaritasi:

Dars bosqichlari	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchi
I bosqich. Tayyorlov	Mavzu aniqlanadi. Darsning mohiyat va mazmuni o'quvchilarga tushuntiriladi.	Tinglaydilar, savollarga aniqlik kiritishlari mumkin.
II bosqich. Mavzu ustida ishlash	Mavzuni ochishga qaratilgan ramziy «bekat»lar haqida umumiy tushunchalar beriladi, ular bo'yicha olib boriladigan ishlar tushuntiriladi, mavzular ustida ishlashga ruxsat beriladi. a) «Gap» bekati – tarqatma materiallar tarqatiladi, berilgan so'zlardan gaplar tuzish taklif etiladi. b) «Gap bo'laklari» bekati – shartli belgilarga mos keladigan gaplarni o'rniga qo'yib yozish talab etiladi.	Dars jarayonida barcha o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida faol ishtirok etadilar.
III bosqich. Yakuniy qism	Mavzuga doir uyga vazifa beriladi hamda dars jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.	

6. Darsning borishi.

Dars mashg'ulotining tashkiliy qismi odatdagiday tashkil etiladi. Darsning mavzusi va maqsadi o'quvchilarga e'lon qilinadi.


O'qituvchi «Gap va gap bo'laklari shahriga sayohat» oldidan yo'ning naqadar mashaqqatli, shu bilan birga qiziqarli uchrashuv va suhbatlarga boy ekanligi haqida o'quvchilarga ilk ma'lumotlar beradi.

«Sayohat avtobusi» yo'lda davom etadi. U «**Gap**» **bekatiga** yetganida o'quvchilar mavzuga taalluqli tarqatma materiallar asosida faollashtiriladi:

Berilgan so'zlardan uchta gap tuzib yozing. Gapni ajratib ko'rsatilgan so'z bilan boshlang.



«**Gap bo'laklari**» **bekatida** o'quvchilardan quyida keltirilgan shartli belgilarga mos keladigan gaplarni o'rniga qo'yib yozish so'raladi.



Shartli belgilar o'rniga qo'yish uchun gaplar:

1. Eng buyuk jasorat – ma'naviy jasorat.
2. Men elimga sodiq farzand bo'laman.
3. Konstitutsiyamiz necha bobdan iborat?
4. Kelajakda Sanjar harbiy bo'lmoqchimi?

7. Xulosa. O'yin asosida tashkil etiladigan bu kabi darslarda o'quvchilar ixtiyoriy ravishda ishtirok etadilar, o'yin jarayonida o'zlarining o'quv-biluv faolligini ko'rsatishga harakat qiladilar, topshiriqlarga ijodiy yondashadilar, mavzu-bekatlarning mazmun-mohiyati ularda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, rahmdillik, mehribonlik, notiqlik, zukkolik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish imkonini beradi.

DARSNING MAVZUSI: NIMA YAXHSI-YU, NIMA YOMON? ODOBLI BO`LISH OSONMI?

Darsning maqsadi.

Ta'limiy maqsad:

- a) o'quvchilarga odob va axloq haqida ma'lumotlar berish;
- b) o'quvchilarning matni to'g'ri, ifodali va tushunib o'qish malakasini o'stirish;
- c) o'qiganlarini qayta hikoyalash ko'nikmasini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad:

- a) o'quvchilarning ajdodlar merosini qadrlashini tarbiyalash;
- b) hunarga bo'lgan munosabatlarini yaxshilash

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda erkin fikrlash va hozirjavoblik malakasini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning uslubi: suhbat, o'yin, "Aqliy hujum".

Darsning jihozi: ko'rsatmali qurollar, kasbga oid rasmlar, test, o'yin.

Darsning borishi.

I. Darsni tashkil etish.

- Salomlashish, o'quvchilar davomatini aniqlash;
- O'quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish;
- Sinf o'quvchilarini guruhlarga bo'lish:

I guruh "Bo`ron" shiori: "A'lo baholar bilan yangi yilni kutib olamiz".

II guruh "Qor" shiori: "Doim oldinga intilish".

III guruh “Qor parchasi” shiori: “Hammaga omad tilaymiz, orqaga chekinmaymiz”

Baholash:

OFARIN

BARAKALLA

TASANNO

II. O`tilgan mavzuni mustahkamlash. Har bir guruhga topshiriq beriladi:

Yaxshi odam qanday bo`lishi kerak?

Odob haqida maqollar ayting.

Odob haqida hikmatli so`zlar ayting?

III. Yangi mavzu. Nima yaxshi-yu, nima yomon? Odobli bo`lish osonmi?

(2soat)

“Aqliy hujum” Odobli bola qanday bo`lishi kerak?

Darslikda berilgan rasmlarni kuzatib, suhbatlar o`tkazish.


“Odobli bo`lish osonmi?” matnini yozgan muallif haqida suhbat.

Matnning I qismini va II qismini o`quvchilarga o`qib berish. Har bir guruhdan bittadan o`quvchi matnni navbat bilan o`qishadi. O`quvchilar bittadan gap o`qiydilar.

Matn mazmuni bilan ishlash. Savol-javoblar o`tkazish:

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Klaster bilan ishlash:



Topishmoq va maqollar aytish.

V. Darsni yakunlash.

O`quvchilar bilimni baholash. O`quvchilar to`plagan baholari jamlanadi va qatorlar o`rni aniqlanadi. Darsga faol qatnashgan o`quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa. “ Odobli bo`lish osonmi?” matnini o`qib so`zlab berish

DARSNING MAVZUSI: NAVRO`Z – BAHOR BAYRAMI

Darsning maqsadi.

Ta`limiy maqsad:

- o`quvchilarga bahor fasli haqidagi bilimlarini o`stirish;
- o`quvchilarning matnni to`g`ri, ifodali va tushunib o`qish malakasini o`stirish;
- o`qiganlarini qayta hikoyalash ko`nikmasini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad:

- o`quvchilarning tabiatga bo`lgan munosabatlarini tarbiyalash;
- hunarga bo`lgan munosabatlarini yaxshilash

Rivojlantiruvchi maqsad: o`quvchilarda erkin fikrlash va hozirjavoblik malakasini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning uslubi: suhbat, o`yin, “Aqliy hujum”.

Darsning jihozi: ko`rsatmali qurollar, kasbga oid rasmlar, test, o`yin.

Darsning borishi.

I. Darsni tashkil etish.

- Salomlashish, o`quvchilar davomatini aniqlash;
- O`quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish;
- Sinf o`quvchilarini guruhlarga bo`lish:
- I guruh “Yomg`ir” shiori: “A`lo baholar bilan yangi yilni kutib olamiz”.
- II guruh “Do`l” shiori: “Doim oldinga intilish”.
- III guruh “Shamol” shiori: “Hammaga omad tilaymiz, orqaga chekinmaymiz”

Baholash:

OFARIN

BARAKALLA

TASANNO

II. O`tilgan mavzuni mustahkamlash. Har bir guruhga topshiriq beriladi:

She`rda bahor faslida tabiat uyg`onishi qanday tasvirlangan?

She`r mazmunini “mayin shamollar”, “soyabon tollar”, “tong yellari”, “o`tlar tebranib”, “ko`kni quchgan teraklar” iboralaridan foydalanib, qayta hikoya qiling.

Bahor fasli haqidagi she`rlardan aytib bering.

III. Yangi mavzu. Navro`z – bahor bayrami.

“Aqliy hujum” Bahor fasli haqida nimalarni bilasiz?

Matni o`quvchilarga o`qib berish. Har bir guruhdan bittagan o`quvchi matni navbat bilan o`qishadi. Matni barcha o`quvchilar “zanjir” bo`lib o`qishadi.


Matn mazmuni bilan ishlash. Savol-javoblar o`tkazish:

1. Erka cholning o`rigi haqida gap ketganida nima uchun yozuvchi: “yuragim hapriqib ketdi. Shirin-shirin entika boshladim”, - deb yozadi?

2. U bobosining orqasidan ergashib yurishini nimaga o`xshatadi?
3. “Qoraqandak” o`rigi haqida bobosinimalarni gapirib berdi?
4. “Yaxshidan bog` qoladi” maqolining hikoyaga qanday aloqasi bor?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Klaster bilan ishlash:



Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asaridan:

Milliy ma’naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram – sharqona yangi yil bo`lmish Navro`z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo`ladi.

Topishmoq va maqollar aytish.

V. Darsni yakunlash. O`quvchilar bilimni baholash. O`quvchilar to`plagan baholari jamlanadi va qatorlar o`rni aniqlanadi. Darsga faol qatnashgan o`quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa. Navro`z – bahor bayrami.

Loyihalash usuli

Loyihalash usuli bilim va malakalarni, tahlil qilish, baholashni amaliy qo'llashni nazarda tutuvchi ta'limning majmuaviy usulini amalga oshiradi. Boshqa usullarga qaraganda, bu usul o'quvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko'proq ishtirok etadilar.

Loyihalashda individual tashabbus ham ma'lum rol o'ynasada, har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyati natijasi deyish mumkin.

Bu metodning didaktik vazifalari:

- ta'lim jarayonini faollashtiradi;
- ko'pgina didaktik manbalardan foydalanish imkonini beradi;
- o'zini-o'zi motivlash amalga oshiriladi;
- o'zlarining mehnatining samarasini ko'ra oladi;
- o'quvchilarga axborot qidirishga yordam beradi;
- ishtirokchining o'zi axborot manbai bo'lishi mumkin;
- butun jarayon muvofiqlashtiriladi;
- o'quvchilar quvvatlanadi va taqdirlanadi;
- uzluksiz qayta aloqa o'rnatiladi.

Loyihalar usulining texnologik xaritasi

Dars bosqichlari	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchi
I bosqich. Tayyorlov	Mavzu tanlanadi, o'quvchilarga dars uslubi tushuntiriladi. Loyiha mazmuni tushuntiriladi, baholash mezonini belgilab olinadi.	Guruhlariga birlashadilar loyiha mavzusini tahlil qilib tanlaydilar. Loyihalashga oid maqsad va kutilayotgan natija belgilab olinadi.
II bosqich. Rejalashtirish	G'oyalar yuzasidan takliflar kiritadi. Ma'lumot manbalarini yig'ish va tahlil etishni tavsiya etadi. Jarayonni baholash mezonlarini belgilab oladi.	Loyihaning yo'nalish rejalarini belgilaydilar, jarayon bosqichlari va ulardagi guruh a'zolarining vazifalarini aniqlaydilar.
III bosqich. Tadqiq qilish	Ma'lumot manbalarini qidirishga yordam beradi,	Ma'lumotlar yig'adilar, oraliqdagi vazifalarni

	ma'lumot, maslahatlar berib turadi.	yechadilar.
IV bosqich. Ma'lumotni tahlil qilish. Xulosalarni shakllantirish	Butun jarayonni muvofiqlashtiradi, qayta aloqani o'rnatadi.	Olingan ma'lumotlarni tahlil qiladilar, yakuniy natijalarni aniqlaydilar.
V bosqich. Hisobot	Oddiy qatnashchi sifatida eshitadi, maqsadga muvofiq savollar beradi, qo'llab-quvvatlaydi va taqdirlaydi.	Ish natijalarini og'zaki, materiallarni namoyish qilish orqali og'zaki hisobot beradilar, loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot beradilar.
VI bosqich. Jarayon va natijalarni baholash	Muammoni yechish darajasining to'liqligi, guruhlarining faoliyat strategiyasini, o'quvchilarning tirishqoqligini, manbalardan foydalanish sifatini, ijodiy yondashuvni, hisobot sifatini baholaydi.	Jamoa bo'lib loyihalari yuzasidan hisobot beradilar, o'z g'oyalarini himoya qiladilar.

Rolli o'yinlar

Rolli o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda, matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Rolli o'yinlar o'quv usuli sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi.

O'rgatuvchi: umumta'lim mahoratni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni o'stirish; shu jumladan, vaziyatlarni tushuntirish, aniqlash va tahlil qilish;

Rivojlantiruvchi: mantiqiy tafakkurni, nutqni atrof-muhit sharoitida o'rganish qobiliyatini o'stirish;

Motivasion: o'quvchilarni o'quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosaga kelishishga rag'batlantirmoq;

Tarbiyaviy: mas'uliyatni, kommunikativlikni shakllantirish.

O'yin usullari va vaziyatlarini, mashg'ulotning belgilangan shaklida amalga oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha sodir bo'ladi:


- didaktik maqsad o'quvchilar oldiga vazifa ko'rinishida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- uning vositasi sifatida o'quv materiallaridan foydalaniladi;
- o'quv faoliyatiga didaktik vazifani o'yinga aylantiradigan musobaqa elementi kiritiladi;
- didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarishi o'yin natijasi bilan bog'lanadi.

Rolli o'yin vaziyatda ko'rsatilgan muammoni yechish bo'yicha qatnashchilarning birgalikda faol ish olib borishiga asoslangan. Mavzu qatnashchilarining maqsadlari – bor muammoni yechish. Lekin individual maqsadlar, ishbilarmon o'yinidagi kabi kelishib olinmaydi. Rolli o'yin qatnashchilarning har birini maqsadi – g'alaba qozonish, o'zini ko'rsatish. Vaziyatli o'yin yakunlarini baholash faqatgina umumiy maqsadga erishish natijasiga qarab emas, balki har bir qatnashchining maqsadga erishishiga qarab belgilanadi.

«Qarorlar shajarasi» («Qarorlar qabul qilish texnologiyasi») metodi

«Qarorlar shajarasi» metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta taxlil etish asosida ular yuzasidan muayyaan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh yoki sinf o'quvchilari ishtirokida qo'llaniladigan «Qarorlar shajarasi» bir necha o'n nafar o'quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash a baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqul

jixatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar:



Qarorlar shajarasi metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni yozish uchun plakat tayyorlaydi.

2. O'qituvchi o'quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar bildirilgan xulosalarni bir-biri bilan qiyoslaydilar. Agarda barcha guruhlar tomonidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

Amaliy o'yinlar

Amaliy yoki ishchan o'yinlar yoki mavzuni o'zlashtirish, takrorlash, ijodiy qobiliyatlari rivojlantirish vazifalarini bajarish imkonini beradi. O'quv jarayonida amaliy o'yinlarni turli shakllaridan foydalanishadi: taqlid qilish, roli o'yinlar (teatr darslari va sahna ko'rinishlari va h.k.)

Taqlid qilish o'yinlari. Darsda birorta tashkilot, korxonada ishi taqlid etiladi (ish yig'ilishi, ish rajasining muhokamasi, muzokaralar, munozaralarni olib borish, sud, patent tashkiloti, ilmiy kengashlarda chiqishlar va h.k.)

Rolli o'yinlarda o'quvchi turli xil xarakterli inson obraziga qalban kirishib ketadi. O'yinda o'quvchilarga asosan tugallanmagan vaziyatlar aks etgan, muamoli sahna ko'rinishi rollari beriladi. O'quvchilar ushbu muammoli rollarni mustaqil ravishda oxiriga yetkazib o'ynashlari shart.

Teatr dasturlarida rolli o'yinlar o'quvchilarni boshqa insonlarni tushunishga o'rgatadi. Ushbu usul o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, xayotda har qanday sharoitda ham o'zini tuta bilishga tarbiyalanganligiga hamda mustaqil xayot kechirishdagi o'zini qarashlarini asoslab bera oladigan inson sifatida shakllantiradi.

1. Tayyorlash bosqichida xayotdagi biror muammo, vaziyatni ko'rsatish uchun snerai tayyorlanadi. Masalan, sud jarayoni ilmiy kengashda muhokama, korxonada rahbari qoshidagi ishchi yig'ilish va h.k. o'yinda qatnashuvchilarga yo'l-yo'riqlar beriladi. O'yinni o'tkazish uchun ekspertlar tanlanadi. Qatnashuvchilar bu ekspertlarda o'yingacha kerakli ma'lumotlarni olishadi. O'quvchilar rollarini o'zlari tanlab olishi yoki o'qituvchi tomonidan bo'lib berilishi mukmin. Shundan so'ng, o'yinda qatnashuvchilar rollar ustida mashq qiladilar, ishlaydilar. Bu bosqich odatda 1,5 -2 haftaga cho'ziladi.

2. O'yinni o'tkazish bosqichida o'quvchilar o'zlariga bo'lib berilgan rollarni o'z mustaqil fikr g'oyalaridan kelib chiqib, xayotda shunday vaziyatda o'sha inson qanday yo'l tutardi, shular haqida fikr mulohaza yuritib o'ynaydilar. O'qituvchi o'yin davomida tomoshabin sifatida bo'ladi. Ayrim xollardagina o'yinga aralashishi mumkin.. bunda qisqa, aniq va lo'nda harakat qilishi kerak bo'ladi.

Ishchan o'yinlar turlariga qarab , o'yinda qatnashayotganlarning ishga nisbatan munosabati orqali: g'oyalar generatori, ishlab chiquvchi, taqlid qiluvchi, bilimdon; tahlil qiuuvchi (analitik) bo'lishi; yangilikka munosabat orqali: faol, ehtiyotkor tanqidchi, konservator (eskilik tarafdori) bo'lishi; tutgan o'rniga qarab: tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi, umumlashtiruvchi, nazoratchi, trener va h.k. bo'lishi mumkin.

3. Muhokama va baholash bosqichida ekspertlar, o'yin ishtirokchilari, tomoshabinlar o'yinni tahlil qilish, muhokama qilish imokniyatiga ega bo'ladilar, xayot bilan o'xshashlikka, o'quv fani bilan bog'liqlikka e'tibor beriladi va o'qituvchi tomonidan yakunlanib baholanadi.

Bahs – Munozara

O'quvchilarni tanlangan mavzu sohasida munozara qilishga o'rgatish, ularning bilimlarini chuqurlashtiradi, o'z fikrlarni asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.

Munozarani o'tkazish uchun:

1.O'qituvchi baxs –munozara mashg'uloti uchun muammoli mavzu tanlaydi va o'quvchilari taklif etaldi.

2. O'qituvchi qatnashuvchilarga muammoni «Aqliy hujum» usuli bilan yechishni vazifa qilib yuklaydi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi.

3. O'qituvchi «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozma ravishda yozishni taklif etadi yoki ularni yozish uchun kotib tayinlaydi.

4. O'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga ajratadi va sinfni ikii tomoniga qator qo'yilgan stolar yoniga o'tqazadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtai nazarni himoya qilishlarini belgilaydi. Shundan so'ng 1- guruh o'quvchilariga numerlangan varaqlar tarqatiladi va 5 – minut davomida o'zlari ma'qullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta dalilni yozish topshiriladi.

5. 1-guruh a'zolari tomonidan yozilgan varaqlar qarshi guruhlari shuriklariga beriladi. Ular sheriklarining dalillariga qarshi javob topishi va yozishi uchun hamda o'z qarshi dalililarini bayon qilishlari uchun 10 minut vaqt ajratiladi.

6. O'quvchilar bilimlarini aniqlash uchun dalillar almashtirishni 2-3 marta takrorlash yetarlidir.

7. Baxslarga yakun chiqarishning yaxshi shakli ikkala tomonga qaratilgan savodir: qarshi tomonning eng yaxshi dalil isbotlari qaysilari bo'ldi?

8. O'qituvchi tomonidan munozara qatnashchilarini baholash. Ammo bu haqda o'quvchilarni darsning boshidayoq ogohlantirishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash kerakli darajada o'z samarasini ko'rsatadi. O'qituvchi bunday innovatsion usullarni qo'llashi natijasida o'quvchilar qiziqishini o'ziga tortadi, diqqatini jalb qiladi va xotirasini mustahkamlaydi.

Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan innovatsion usul o'quvchilarga bilim berishda, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z samarasini ko'rsatadi.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha oilada boshlangan ish maktabda o'zaro uzviy bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi ikki jarayonda – ta'limda va tarbiyada maqsadga qaratilgan va ilmiy asoslangan holda davom ettiriladi.

Biz ilgari paragraflarda to'g'ri tashkil qilingan ta'lim jarayonining boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiya elementalarini shakllantirishda qanday imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatib bergan edik. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda maxsus tashkil qilingan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning alohida, o'ziga xos imkoniyatlari borligini yoddan chiqarmasligimiz kerak.

Shu bois quyida ana shu imkoniyatlarning qandayligini, mazkur imkoniyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yoritishga o'tamiz.

Boshlang'ich maktabda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni va formasi asosan o'quvchilarning qiziqishlari va talablariga hamda ularning umumiy tayyorgarligi, shaxsiy moyilliklari e'tiborga olinadi. Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning yana bir xususiyati shundaki, bularda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari asosiy o'rin tutadi. To'garaklarda va maktab maydonchalarida xilma-xil mustaqil ishlar bilan shug'ullanish uchun o'quvchilarga katta imkoniyatlar yaratiladi. Mustaqil ishlarni, asosan o'quvchilarning o'zlari tashkil qiladilar, pedagog o'qituvchilar esa o'quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligiga suyanib umumiy rahbarlik qiladilar.

Sinfdan tashqari ishlar milliy pedagogikamizning tarkibiy qismidir. U darsda olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarini mustahkamlaydi va to'ldiradi, o'quvchilarni pedagogik ta'sirga to'la jalb etishga, dars uchun ajratilgan vaqt

ichida amalga oshirish qiyin bo'lgan yoki butunlay iloji bo'lmagan ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga yordam beradi [60, 32-b.].

Unda mashg'ulotlar ham mazmunan ham forma jihatdan o'quvchilar uddalay oladigan bo'lishi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda ota-onalar jamoasi yordamiga suyangan holda olib borilishi lozim.

Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida mehnat va o'quv mashg'ulotlari bilan o'yin-kulgi, xordiq chiqarish tadbirlari o'zaro muvofiqlashtirilishi kerak. Sinfdan va maktabdan tashqarida olib boriladigan ishlardan ko'zlangan muhim maqsadlardan biri vatanimiz tarixiga, uning boy ilmiy madaniy, adabiy merosiga qiziqishlar tug'dirish, yoshlarni har tomonlama rivojlangan ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashdir.

To'g'ri tashkil qilingan sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar quyidagi funksiyalarni – ta'limiy, rivojlantruvchi, tarbiyalovchi, to'g'rilovchi, kasbiy-yo'naltiruvchi va boshqalarni ro'yobga chiqarishni ta'minlashi mumkin.

Sinfdan va maktab tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ilk ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha ularning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarga rioya qilish kerak. Bu yerda ularning ayrimlarini keltiramiz:

- o'qituvchining sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'quvchilar ma'anaviyatini shakllantirish imkoniyatini to'g'ri tushunishi;
- uni tashkil etish zarurligiga ishonchi;
- uni o'tkazish texnologiyasini bilishi;
- uni tashkil etishda ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari, boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasiga moyillik bildirgan yuqori sinf o'quvchilarini jalb qilish ko'nikmasi bo'lishi kerak.

Quyida sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash uchun quyidagi o'yin ssenariylarini tavsiya etamiz.

«Vataningizni sevasizmi?» o'yini

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'yinga tayyorlash tartibi.

O'yin qoidalari bilan tanishtirish:

- a) o'yinga saralash turidan muvaffaqiyatli o'tgan sinf o'quvchilari qo'yiladi;
- b) o'yinchi har bir to'g'ri bergan javobi uchun 10 ball oladi;
- c) har bir noto'g'ri bergan javobi uchun o'yinchi 5 ballni yo'qotadi;
- d) o'yinchi zaruriyat tug'ilganda ikki imkoniyatdan foydalanishi mumkin:

zalning yordami va do'stining yordamidan;

- e) to'g'ri javob bermagan o'yinchi o'yindan chiqib ketadi;
- f) 3 o'yinchini saralab olish uchun saralash 3 turda o'tkaziladi;
- g) eng ko'p ball to'plagan o'yinchilardan biri g'olib hisoblanadi.

O'yinni o'tkazish uchun tashkil etilgan «Ishlar kengashi» sinf(zal)ni tegishli ravishda jihozlaydi, mehmonlarni taklif qiladi, topshiriqlar yozilgan plakatlarni tayyorlaydi.

2. «Vataningizni sevasizmi?» o'yinini o'tkazish tartibi:

Sinf rahbari hozir bo'lganlarni mamnuniyat bilan tabriklaydi, hay'at a'zolarini tanishtiradi, o'yinchilarga o'yinda uyushqoqlikni, tirishqoqlikni, diqqatni jamlashni uqtirib, g'alaba uchun kurashda muvaffaqiyat tilaydi.

Hay'at raisi, ota-onalardan xohish bildirganlardan biri, o'yin qoidalari va g'oliblikni qo'lga kiritish shart-sharoitlari bilan tanishtiradi, priz-suyunchi saqlanib turgan quttichani ko'rsatadi.

Diqqat! Birinchi g'olibni aniqlash uchun saralash turining 1-bosqichi boshlandi.

Ekkranda birinchi topshiriqning matni ko'rinadi:

- Ulug' shoirlar nomlarini alfavit tartibida joylashtiring: Navoiy, G'afur G'ulom, Oybek, Zulfiya.

Kim birinchi bo'lib to'g'ri javob bergan bo'lsa, shu g'olib bo'ladi.

Ikkinchi o'yinchini aniqlash uchun saralash turining 2-bosqichi boshlanadi.

Ekkranda ikkinchi topshiriqning matni ko'rinadi:

- O'zbekiston Respublikasi madhiyasi musiqasini kim bastalagan?
A.Oripov, Ye.Vohidov, M.Burxonov, R.Sharipov.

Uchinchi o'yinchini aniqlash uchun saralash turining 3-bosqichi boshlanadi.

Ekkranda uchinchi topshiriqning matni ko'rinadi:

- Keltirilgan besh qush – feniks, burgut, qoraqush, kaptar, xumodan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi Gerbida aks ettirilgan?

Hay'at raisi saralash turlaridan muvaffaqiyatli o'tganlarni sahnaga taklif qiladi, ularni birinchi g'alaba bilan tabriklaydi va ko'kragiga o'yinchi nishonini taqadi.

**O'yin kafedrasiga birinchi o'yinchi taklif etiladi.
Ekkranda test-topshiriqlari ko'rinadi (javob berish uchun 1 daqiqa beriladi)**

1-test O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingan kunni ayting. A. 1997 yil 21 mart B. 1991 yil 31 avgust C. 1994 yil 5 dekabr D. 2003 yil 1 yanvar	4-test Movarounnahrda birinchi rasadxonani kim qurdirgan? A. Temur. B. Bobur. C. Ulug'bek. D. Hamza.
2-test O'zbekiston Respublikasi Bayrog'ida nechta yulduz tasvirlangan. A. 10 ta. B. 12 ta. C. 13 ta. D. 9 ta.	5-test O'zbekiston Respublikasi poytaxtining bosh maydoni nomini ayting. A. Qizil maydon. B. Registon maydoni. C. Paradlar maydoni D. Mustaqillik.
3-test O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlarini ayting. A. Bayroq, o'roq, bolg'a. B. Ulug'bek yulduzlari. C. Bayroq, gerb, madhiya. D. Bug'doy, paxta, yulduzchalar.	6-test Yangi 2008 yil qanday yil deb e'lon qilindi? A. Yoshlar yili. B. Sog'lom avlod yili. C. Oila yili. D. Onalar va bolalar yili.

Hay'at raisi birinchi o'yinchiga tashakkur bildiradi, to'plagan ballari miqdorini e'lon qiladi.

Sahnaga ikkinchi o'yinchi taklif qilinadi.

<p style="text-align: center;">1-test</p> <p>O'zbekiston Respublikasida qaysi bayram eng katta hisoblanadi?</p> <p>A. 8-mart. B. Navro'z. C. Mustaqillik bayrami. D. Yangi yil.</p>	<p style="text-align: center;">4-test</p> <p>Xalqlar do'stligi maydonida kimga haykal o'rnatilgan?</p> <p>A. Sobir Rahimovga. B. Usmon Yusupovga. C. Shomahmudovlar oilasiga. D. Yo'ldosh Oxunboboyevga.</p>
<p style="text-align: center;">2-test</p> <p>Dunyoda hamma narsadan nima qimmatliroq?</p> <p>A. Pul. B. Oltin. C. Bilim. D. Qimmatbaho buyumlar.</p>	<p style="text-align: center;">5-test</p> <p>O'zbekistonda nimani «oq oltin» deb ataydilar?</p> <p>A. Neft. B. Gaz. C. Paxta. D. Suv.</p>
<p style="text-align: center;">3-test</p> <p>Birinchi o'zbek generalining nomini ayting.</p> <p>A. Sultonov. B. Petrov. C. Sobir Rahimov. D. Yusupov.</p>	<p style="text-align: center;">6-test</p> <p>Buyuk olim, ma'rifatparvar Ulug'bek kimning nevarasi bo'lgan?</p> <p>A. Temurning. B. Boburning. C. Forobiyning. D. Ibn Sinoning.</p>

O'yin-kulguga vaqt ajratiladi. Hay'at raisi o'yinchini tabriklaydi, o'yinda faol ishtirok etgani uchun unga tashakkur aytadi va to'plagan ballari e'lon qiladi.

O'yin kafedrasiga uchinchi talabgor taklif qilinadi. Ekranda topshiriq ko'rinadi.

<p style="text-align: center;">1-test</p> <p>Toshkent tibbiyot institutiga nomi qo'yilgan buyuk o'zbek olimi, ma'rifatparvari, tabibining otini ayting.</p> <p>A. Navoiy. B. Forobiy. C. Ibn Sino. D. Aripov.</p>	<p style="text-align: center;">4-test</p> <p>O'zbekistonliklarning mehmondo'stliklari nimada ifodalangan?</p> <p>A. Bilimga intilishda. B. Tarbiyalanganlikda. C. O'z uyida qabul qilishga, mehmon qilishga tayyorligida. D. Do'stlashishga intilishda.</p>
<p style="text-align: center;">2-test</p> <p>Mamlakatimizda qachon onalar kuni nishonlanadi?</p> <p>A. 1-yanvarda. B. Navro'z bayramida.</p>	<p style="text-align: center;">5-test</p> <p>O'zbekiston Respublikasi madhiyasi matnini kim yozgan?</p> <p>A. M.Burxonov. B. E.Vohidov.</p>

C. 8-martda. D. 1-sentyabrda.	C. O'.Hoshimov. D. A.Oripov
3-test	6-test
<p>Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941-1945yy.) O'zbekiston xalqining bolalarga boshpana berganiga, mehr-muruvvatiga bag'ishlangan «Sen yetim emassan» she'rini kim yozgan?</p> <p>A. Oybek. B. Quddus Muhammadiy. C. G'afur G'ulom D. Hamza.</p>	<p>O'zbekistonliklar yashaydigan va do'stlashadigan, bir-biriga yordamlashadigan shahar hududi qanday aytiladi?</p> <p>A. Ko'cha. B. Kvartal. C. Mahalla. D. Tuman.</p>

Hay'at raisi uchinchi o'yinchiga o'yinda faol ishtirok etgani uchun unga tashakkur aytadi va to'plagan ballarini e'lon qiladi.

Zalda o'tirganlar o'yinchilarni qarsaklar bilan tabriklaydilar.

Hay'at raisi eng ko'p ball to'plagan o'yinchining ismi-sharifini aytadi va g'olibni faxrli joyini egallashga taklif qiladi. U ajoyib quttichaning sohibi bo'ladi va uni ichini ochib mukofotni qo'liga oladi.

G'olibni barcha o'qituvchi, ota-ona, sinfdoshlari tabriklaydilar. Hamma o'rnidan turadi va «O'zbekiston – Ona Vatanim» ashulasini kuylaydi, uning matni ekranda hammaga ko'rinib turadi.

“O'zbekiston – Vatanim mening”

Mashg'ulotning maqsadi: Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali mavzuning mazmunini ochib berish. Mustaqillik – Vatanimiz, xalqimiz hayotida muhim tarixiy voqeya ekanligi hamda davlatimizning istiqbol yillarida erishgan yutuqlari, yoshlarimiz uchun yaratilgan imkoniyatlar, buyuk o'zgarishlar haqida tushuncha berish orqali o'quvchilar ongida Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda vatanparvarlik va insoniylikni shakllantirish, vatanni sevishga, uni asrab-avaylashga, erishilgan yutuq va

muvaffaqiyatlarni qadrlashga va berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishga o'rgatish.

Ta'limiy maqsad: mashg'ulot jarayonida o'quvchilarda Vatan haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish. O'quvchilarga Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida aytilgan "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart", degan g'oya asosida ta'lim berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, mustaqillik haqidagi tasavvurini boyitish.

Mashg'ulot turi: o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil va nazorat qilish, suhbat, musobaqa.

Mashg'ulot uslubi: interfaol, noan'anaviy.

Mashg'ulotning jihozi: darslik, mavzuga oid testlar, boshqotirma, rebuslardan foydalanish.

Mashg'ulotning borishi:

a) Tashkiliy qism: o'quvchilarning davomatini aniqlash, sinf tozaligini tekshirish, mavzuga oid ko'rgazmali rasmlar.

b) Uyga berilgan vazifa o'quvchilardan so'raladi, javoblarning to'g'riligi aniqlanadi.

v) O'qituvchi mavzuga oid savollarni to'ldiradi, yangi mavzuni e'lon qiladi. O'quvchilar o'zlari xohlagan tarzda fasllarni tasvirlaydi, shunga qarab guruhlarini topib aniqlaydi. Quyidagicha guruhlar tuziladi "Zukkolar", "Bilimdonlar" va "Topqirlar".

O'qituvchi: - aziz bolalar, bugungi mashg'ulotimizni musobaqa-suhbat tarzida olib boramiz. Har bir guruhga turli shartlar qo'yiladi. Shartlar qay tarzda bajarilgani baholab boriladi. O'zbekistondan buyuk davlat farzandlari – siz doim yaxshi, bilimli, tarbiyali bo'lishingiz kerak. Ajdodlarimiz, buyuk allomalarimizni butun dunyo tan olmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda al-Xorazmiy matematikasi, Ibn Sino tibbiyoti, Alisher Navoiy she'riyatini o'rganishmoqda.

Inson uchun Vatandan ortiq muqaddas maskan bormi? Yo'q, albatta! Vatan ona kabi aziz va yagonadir. U muqaddas va bebahodir! O'zbekiston kundan kunga gurkirab, yashnab, chiroy ochmoqda.

“Tez toping” deb nomlangan shart. O'quvchilarga tezkor usulda javob berishi uchun test savollari tarqatiladi. 1 daqiqa vaqt ajratiladi.

I shart.

1 guruhga:

1. O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqil bo'ldi?
A) 1991 yil, 1 sentyabr
B) 1992 yil, 1 sentyabr
S) 1991 yil, 1 oktyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qachon qabul qilingan?
A) 1992 yil, 8 dekabr
B) 1992 yil, 10 dekabr
S) 1991 yil, 2 dekabr

2 guruhga:

1. O'zbekiston respublikasi Davlat gerbi qachon qabul qilingan?
A) 1991 yil, 2 iyul
B) 1992 yil, 2 iyul
S) 1992 yil, 10 oktyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qachon qabul qilingan?
A) 1992 yil, 8 dekabr
B) 1991 yil, 8 dekabr
S) 1992 yil, 4 dekabr

3 guruhga:

1. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi musiqasi muallifi kim?
A) Mutal Burxonov
B) Shermet Yormatov
S) Nadim Norxo'jayev

2. O'zbekiston Respublikasida "O'qituvchilar va murabbiylar" kuni qachon nishonlanadi?

- A) 1 sentyabr
- B) 1 oktyabr
- S) 1 yanvar

II shart: «Aqliy hujum». Guruhlarning qisqa savol-javoblar asosida bilimni aniqlash.

1 guruh "Zukkolar".

- 1. Bayroqda nechta rang bor?
- 2. Bir yilda nechta fasl bor?
- 3. Quyosh kechasi chiqadimi? Kunduzmi?
- 4. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar nima?
- 5. Bahorda birinchi keladigan qush?

2 guruh "Biimdonlar".

- 1. Quruqlikdagi eng katta hayvon?
- 2. 1 oktyabr qanday kun?
- 3. Bahorda birinchi ochiladigan gul?
- 4. Bir qop un, ichida ustun. Nima?
- 5. Sabzixo'r hayvon?

3 guruh "Topqirlar".


- 1. Buyuk ne'mat nima?
- 2. Navro'z qachon nishonlanadi?
- 3. Suvdagi eng katta hayvon?
- 4. O'zi bitta, ko'zi mingta nima?
- 5. Zumrad bilan Qimmat qaysi ertak qahramoni?

III shart e'lon qilinadi. "Klaster" usuli. O'qituvchi klaster usuli haqida tushuncha beradi. O'quvchilarning erkin fikrlashi, fikrini bayon etishiga sharoit yaratadi. "Klaster" aniq narsaga yo'naltirilgan fikrlash shakli, nimani o'ylasang,

shuni yoz, vaqt tugamaguncha taxtacha yoki qog'ozga fikrlarini yozish va boshqa tushunchalardir.

Shundan keyin 3 ta guruhga so'zlar beriladi. Ular klaster usulida ishlashadi.

“Zukkolar” guruhiga “Vatan”, “Bilimdonlar” guruhiga “Ona”, “Topqirlar” guruhiga “Odob” so'zi beriladi. Ya'ni,



III shart bo'yicha guruhlar baholanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, bunday o'yinlarni o'tkazish boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash samaradorligini oshiradi, ular orqali o'quvchilarda qiziqish ortadi, ota-bobolariga, ajdodlariga, Vataniga bo'lgan mehr-muhabbati oshadi, ma'naviyat elementlari shakllanib boradi.

UCHINCHI BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MA'NAViy-AXLOQiy RUHDA TARBIYALASHGA DOIR PEDAGOGIK TAJRIBA TAHLILI

3.1. Pedagogik eksperiment boshida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlash

Hozirgi vaqtda insonlarning ma'naviy-axloqiy bilimdonligini rivojlantirishga e'tibor qaratish talab etilmoqda. Buning uchun esa, ma'naviy ta'lim berish boshlang'ich sinflardan boshlab uzluksiz tarzda olib borilishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga taqdim etiladigan ma'naviy-axloqiy bilimlarning samaradorligi ham ko'p jihatdan ta'lim mazmuni, usul va metodlariga bog'liq. Ma'naviyatga oid bilimlarni taqdim etish usul va metodlari har bir yoshdagi o'quvchining ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari asosida tanlanishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviyatga oid bilimlar bilan tanishtirish dastlabki xarakterda bo'lishi kerak. Bu yoshdagi o'quvchilarga alohida elementar ma'naviy tushunchalarni o'rgatishga urg'u berish maqsadga muvofiqdir. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar interfaol usullar yordamida obrazli, his-hayajonli va qiziqarli o'yin shaklida bayon etilishi kerak. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni taqdim etishda nimani o'quvchilarga berishgina emas, balki qanday berish ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga ma'naviyatga oid bilim va tushunchalarni yanada chuqurroq singdirish uchun ularga har xil o'yinlar, musobaqalar, sahna ko'rinishlari, ta'limiy topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarda ma'naviyatga oid bilim, ko'nikmalarni hosil qilish, ya'ni ularni kichik yoshdan boshlab atrofda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga ahamiyat qaratish, ularga nisbatan o'z fikrini bildirish, halol, irodali bo'lish, kattalarni hurmat qilish, mehnatni qadrlash, nutqni

rivojlantirish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, sabr-qanoatli bo'lish ruhida tarbiyalaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida 2012-2013 yillar davomida Samarqand shahridagi 43-, 49-umumiy o'rta ta'lim maktablarida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda tajriba guruhlardagi o'quvchilar soni 62 ta, nazoratdagisi esa 61 ta qilib olindi hamda tajriba o'tkaziladigan sinflarda o'quv materiallarining didaktik ishlanmalari tayyorlandi. Bu o'quv materiallari bilan tajriba-sinov ishlarini amalga oshiradigan o'qituvchilar tayyorgarlikdan o'tkazildi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida ularga turli mashqlar, savol-javoblar, masalalar va test topshiriqlarini taqdim qildik (1-2-3- va 4-ilovalarga qarang) hamda ko'p balli tizim asosida baholash metodidan foydalandik. Har bir sinf o'quvchilariga 10 tadan topshiriq berildi. Bunda shartli ravishda olingan to'g'ri javoblarga quyidagicha baho mezonini belgiladik:

0 ta savolga-0 ball;

0-4 tagacha savolga-3 ball;

5-8 tagacha savolga-6 ball;

9-10 tagacha savolga-10 ball.

O'quvchilarga taqdim qilingan topshiriqlarni umumlashtirish natijasida Samarqand shahridagi 43-, 49-umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida quyidagicha holatda bo'lganligini aniqladik.

4-sinf o'quvchilari uchun 10 ta topshiriq berildi. Shundan nazorat guruhlardagi 61 ta o'quvchidan 10 ball olgan o'quvchilar soni 7 nafarni, 6 ball olgan o'quvchilar soni 15 nafarni, 3 ball olganlarning soni 28 nafarni, 0 ball olgan o'quvchilarning soni esa 11 tani tashkil qilgan. Tajriba guruhlarda esa 62

o'quvchidan 8 nafar o'quvchi 10 ball, 13 nafar o'quvchi 6 ball, 29 nafar o'quvchi 3 ball, 12 nafar o'quvchi 0 ball olgan.

2-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tajribaning boshida aniqlash natijalari

Guruhlar	O'quvchilar soni	JAVOBLAR			
		10 ball	6 ball	3 ball	0 ball
Nazorat	61	7	15	28	11
Tajriba	62	8	13	29	12

3.2. Pedagogik eksperiment yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi tahlil

Tajriba-sinov yakunida tajriba guruhlaridagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi nazorat guruhidagi o'quvchilarnikidan ancha yuqoriligi kuzatildi.

4-sinf o'quvchilari uchun berilgan 10 ta topshiriqdan nazorat guruhlardagi 61 ta o'quvchining 9 tasi 10 ball, 17 tasi 6 ball, 25 tasi 3 ball olishga erishdi, 10 ta o'quvchi esa bitta ham savolga to'g'ri javob bera olmadi. Tajriba guruhlardagi 62 o'quvchi bu topshiriqlarni quyidagicha bajardilar: 10 ballilar 14 ta, 6 ballilar 24 ta, 3 ballilar 18 tani tashkil qildi. 0 ball olgan o'quvchi 6 ta.

3-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tajribaning yakuniy natijalari

Guruhlar	O'quvchilar soni	JAVOBLAR			
		10 ball	6 ball	3 ball	0 ball
Nazorat	61	9	17	25	10
Tajriba	62	14	24	18	6

4-jadval

Tajriba-sinov ishlarining boshi va yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi ko'rsatkichlari

Guruhlar	O'quvchilar soni	JAVOBLAR							
		10 ball		6 ball		3 ball		0 ball	
		Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun.
Nazorat	61	7	9	15	17	28	25	11	10
Tajriba	62	8	14	13	24	29	18	12	6

Yuqoridagi jadvallarda ko'rsatib o'tilgan sonli ma'lumotlarni statistik tahlil qilamiz. Buning uchun biz x_i lar orqali nazorat hamda y_i lar orqali esa tajriba

guruhlariga mos o'zlashtirish darajalarini belgilaymiz. Bu kattaliklar har biri 0; 3; 6; 10 qiymatlarni qabul qiladi. Bunday ballarga har ikki guruhlardagi o'quvchilarning sonlarini mos ravishda n_i va m_i lar orqali belgilaymiz. Natijada yuqorida 3-jadvaldagi tajriba-sinov ishlari o'tkazilishidan oldin nazorat va tajriba guruhlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajalari bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari mos ravishda quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned}\bar{X} &= \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 x_i n_i = \frac{1}{61} (0 \cdot 11 + 3 \cdot 28 + 6 \cdot 15 + 10 \cdot 7) = \\ &= \frac{1}{61} (84 + 90 + 70) = \frac{244}{61} = 4,0 \approx 4.\end{aligned}$$

$$\begin{aligned}\bar{Y} &= \frac{1}{m} \sum_{i=1}^4 y_i m_i = \frac{1}{62} (0 \cdot 12 + 3 \cdot 29 + 6 \cdot 13 + 10 \cdot 8) = \\ &= \frac{1}{62} (87 + 78 + 80) = \frac{245}{62} = 3,95 \approx 4,0.\end{aligned}$$

Demak, tajriba-sinov o'tkazilishidan oldin har ikki guruhda o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari deyarli farqlanmas ekan.

Biz olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samarador ekanligini ko'rsatish maqsadida 3-jadvaldan sonli ma'lumotlar bo'yicha matematik statistika usullari yordamida chuqur tahlil olib boramiz. Yuqoridagi belgilarni saqlagan holda biz 3-jadvalni 2 ta statistik tanlanma shaklida quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\left\{ \begin{array}{l} X_i : 0;3;6;10. \\ n_i : 10;25;17;9. \end{array} \right. n = 61.$$

$$\left\{ \begin{array}{l} Y_i : 0;3;6;10. \\ m_i : 6;18;24;14. \end{array} \right. m = 62.$$

Tajriba-sinov ishlari yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasi bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}\bar{X} &= \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 x_i n_i = \frac{1}{61} (0 \cdot 10 + 3 \cdot 25 + 6 \cdot 17 + 10 \cdot 9) = \\ &= \frac{1}{61} (75 + 102 + 90) = \frac{267}{61} = 4,37 \approx 4,4\end{aligned}$$

$$\bar{X} \% = \frac{4,4}{10} \cdot 100\% = 44\%.$$

$$\begin{aligned}\bar{Y} &= \frac{1}{m} \sum_{i=1}^4 y_i m_i = \frac{1}{62} (0 \cdot 6 + 3 \cdot 18 + 6 \cdot 24 + 10 \cdot 14) = \\ &= \frac{1}{62} (54 + 144 + 140) = \frac{338}{62} = 5,45 \approx 5,5\end{aligned}$$

$$\bar{Y} \% = \frac{5,5}{10} \cdot 100\% = 55\%.$$

Absolyut farq:

$$(\bar{Y} - \bar{X})\% = 55 - 44 = 11\%.$$

Nisbiy farq:

$$\frac{\bar{Y} \%}{\bar{X} \%} = \frac{55}{44} = 1,25 \approx 1,3\%.$$

Demak, tajriba-sinov ishlari yakunida tajriba guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhlaridagidan 25% yuqori bo'lib, u 1,3 barobar katta ekan. Ushbu ko'rsatkich tajriba-sinov ishlari boshidagidan $(5,5/4,0) = 1,4$ barobarga oshganligini ko'rish mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

Ilmiy tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalarni muhim deb hisoblaymiz:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid ilmiy pedagogik, psixologik adabiyotlarni o'rganish natijasida biz tadqiq etgan muammo yetarlicha ishlanmaganligidan dalolat berdi.

2. Mustaqil O'zbekistonning, jamiyatimizning istiqboli, rivojlanish hamda taraqqiyot yo'li huquqiy, demokratik, insonparvar fuqorolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Bunday jamiyatni barpo etish esa yosh avlodni, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

3. Maktabda ta'lim jarayonining bosh maqsadi o'quvchilarni uzluksiz rivojlantirib borgan holda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. Ijtimoiy munosabatlarga kirishning eng muhim belgisi esa yuksalgan ma'naviyatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ma'naviy bilim va ko'nikmalarni boshlang'ich sinflardan boshlab rivojlantirib borish bugungi kunda tobora ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilayotgan metodik qo'llanma, dastur, darsliklarning mazmunini tahlil qilish hamda shu sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ta'lim jarayoni oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani o'rganish natijasida, boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini innovasion pedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirishning didaktik asoslarini ishlab chiqish pedagogika fanida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammo ekanligi aniqlandi.

4. Pedagogika tarixi mazmunida o'z ifodasini topgan ma'naviy tushunchalar, prinsiplar va ulardan foydalanishda qulay psixologik muhit uyg'ota oladigan

metod va vositalarni qo'llash orqali o'quvchilar ongiga ta'sir etiladi. Bu ta'sir o'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatish – ishontirish tarzida amalga oshirilsa, majbur etish usuli zinhor qo'llanilmasa, tarbiyaviy ta'sir kuchi shunchalik to'laqonli bo'ladi.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'limiy materiallarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ruhiy hamda fiziologik imkoniyatlari, umumiy bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi, ma'naviyatga oid bilim va tushunchalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash doirasiga mos kelishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tanlangan ma'naviyatga oid bilimlarning mazmuni keyinchalik yuqori sinfda beriladigan ta'limning poydevori bo'lib xizmat qilishi lozimligini hisobga olish kerakligi tajriba-sinov ishlari natijasida aniqlandi.

6. Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz natijasida bizning ajdodlarimiz bolalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish sohasida katta pedagogik tajriba to'plaganliklari, ushbu merosdan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga bugungi kunda kuchli ehtiyoj tug'ilyotganligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

7. Innovatsion texnologiyadan dars jarayonida foydalanish uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjud bo'lishi hamda innovatsion texnologiyadan foydalanishning maqsadini aniq belgilab olish lozimligi tadqiqot ishlari jarayonida nazariy jihatdan asoslab berildi.

8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatga oid bilim hamda ko'nikmalari izchil tizim asosida modulli darslar jarayonida integrasiyalashtirilgan o'quv materiallari vositasida muntazam rivojlantirib borilishi natijasida ularning ma'naviy darajasi o'sadi, buni amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari yaqqol ko'rsatdi.

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda darsning turli shakl hamda vositalaridan foydalanish lozimligi tadqiqotlarimiz natijasida aniqlandi.

**Amalga oshirilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi tavsiyalarni
bayon qilamiz:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mashg'ulotlar jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash.
2. Boshlang'ich sinf o'tiladigan o'quv predmetlari mazmuniga ma'naviyatga oid atamalarni kiritgan holda darsliklarda integrallashgan o'quv materiallarini berish.
3. O'quvchilarning ma'naviyatga oid bilimlarini rivojlantirish maqsadida turli o'yin darslarini tashkil etish.
4. Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan har bir darsda ommaviy axborot vositalarida qo'llanilayotgan ma'naviyatga oid atamalarning mazmunini sharhlab borishga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – 64 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 65 b.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 2- jild. – 362 b.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 3- jild. – 366 b.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 4- jild. – 349 b.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. 5- jild. – 384 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 686 b.
9. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 260 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 326 b.
11. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar. - Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 22 b.
12. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 360 b.
13. Karimov I.A. Oллоh qalbimizda, yuragimizda. «Turkiston» axborot agentligi muxbirlarining savollariga javoblar. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 26 b.

14. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –Toshkent; O'zbekiston, 1996. 1- jild.
15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 1998. – 48 b.
16. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». – Toshkent, 1997. – 23 b.
17. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. – Toshkent, 1997. – 21 b.
18. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metod va usullari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Mas'ul muhar. O'. Tolipov. – T., 2001. – 287 b.
19. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Toshkent, 2001. – 62 b.
20. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti, 2006. – 159 b.
21. Alisher Navoiy. Mahbubul-ul-qulub. – Toshkent, 1983. – 112 b.
22. Abu Ali ibn Sino. Imorat va tanbikat. – Tehron, 1993. – 98 b.
23. Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. –Toshkent: Kamalak, 1992. – 82 b.
24. Aliqulov X. Jaloliddin Devoniy. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 46 b.
25. Ashraf Ahmad. «Ulug'bek Muhammad Tarag'ay». – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 120 b.
26. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 160 b.
27. Axmedov A.A. Ilmiy tadqiqot asoslari. – Qarshi, 2002. – 110 b.
28. Axrorov Yu., Qobilova R. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. – Samarqand: SamDU, 1999. – 57 b.
29. Axrorov Yu.A. Pedagogik mahorat. O'quv qullanma. – Samarqand. SamDU 2002. – 110 b.

30. Axatova D.A. Pedagogika fanlarini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish. – Buxoro: «Pedagogik mahorat» jurnali, 2005 yil, 2-son. – B. 23-26.
31. Beruniy A. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
32. Bepalko V.P. Slagayemye pedagogicheskiye texnologii. – M.: Pedagogika, 1989.
33. Grigoryans A.G., Belskaya Ye.M., Abdullayeva T. Tabiatshunoslik. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 87 b.
34. Grigoryans A.G., Belskaya Ye.M., Abdullayeva T. Tabiatshunoslik. 4-sinf. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 112 b.
35. Ziyomhammadov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. – T.: O'ME davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 127 b.
36. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili 4-sinf. –Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 192 b.
37. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomillashgan bosqichlari. – Toshkent, 1996. – 120 b.
38. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: Istiqlol, 2003. – 150 b.
39. Keldiyorov R., Ovloqulov Ya. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash shakl va usullari. – Toshkent., 2001. – B. 133-135.
40. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. So'z boshi va muharrir: prof. N.Shodiyev. – T.: Fan, 1995. – 118 b.
41. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, – 240 b.
42. Mahmudov T. «Avesto» haqida. – T.: Sharq nashriyoti, 2000. – 63 b.
43. Ma'naviyat, mafkura va milliy qadriyatlarning kishilar istiqlol ongi va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: SamDU, 1999. – 305 b.
44. Ochil S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari (O'z. Res. Prezidenti, akademik I.A. Karimov asarlari misolida) – T.: O'qituvchi, 1995. – 207 b.

45. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 80 b.
46. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
47. Ta'lim tizimida talaba-yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi va ularning uyg'unligini ta'minlashning dolzarb muammolari mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand sh., 2007 y. 20-21 aprel. – Samarqand, 2007. – 207 b.
48. Tolipov O'. va b.q. O'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. – Toshkent, 2004. – 64 b.
49. Usmonova S. Ta'lim jarayonida noan'anaviy darslarga ijodiy yondashish usullari. – Buxoro: «Pedagogik mahorat» jurnali, 2005 yil, 2-son. – B. 19-21.
50. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi-mualliflar: Xoshimov K., Ochil S. – T.: O'qituvchi, 1995. – 464 b.
51. Hamidiy H. Avesto// O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 32-35.
52. Hasanboyeva O., Pedagogika tarixidan xrestomatiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 381 b.
53. Hasanova O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 401 b.
54. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 391 b.
55. Shodiyev N. Maktab o'qituvchisi va milliy tarbiya// «Kadrlar tayyorlash miliy dasturi» va malaka oshirish tizimi muammolari. – Samarqand, 1998. – B. 18-21.
56. Shodiyev N. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik merosi xorij zamonaviy ta'lim texnologiyasida. «Xorijiy ta'limning dolzarb muammolari» mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. - Samarqand, 1999. – B. 62-64.
57. Shodiyev N. va b.q. Temuriylar davri ilmiy merosidan milliy-axloqiy tarbiyaviy jarayonda foydalanish. «Amir Temur ilm-fan va madaniyat

- homiysi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2-qism, – Samarqand, 1996. – B. 18-20.
58. Shodiyev N. va b.q. Test nazorat uslubiyati. – Samarqand, 1997. – 82 b.
59. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2005. – 124 b.
60. Shodiyev N., Axrorov Yu., Xolmuxamedov M. Amaliy pedagogik o'yinlar. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2005. – 32 b.
61. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 240 b.
62. Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – Toshkent: Fan, 1994. – 262 b.
63. Yusupov E.Yu. Hadislarda dunyoviy va diniy g'oyalarning bog'liqligi// O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1994, 5-son.
64. Yusuf xos Xojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent, 1972. – 239 b.
65. Qadimiy hikmatlar. Tuzuvchi N.Rahmonov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 432 b.
66. Jiyamuratova X. O'zbekiston – Vatanim mening! “Ziyokor” jurnali. – Samarqand: SamVPKQTMOI, 2012 yil, 8 son. – 25-31 betlar
67. www.ziyonet.uz
68. www.google.uz
69. www.referat.uz

ILOVALAR

1-ilova

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik holatini aniqlashga qaratilgan test va topshiriqlar

1. Quyidagi nasihatlarning ma'nosini tushuntirib bering.

1. «Kishilarning muhabbatini o'zingga jalb qilmoqchi bo'lsang, saxiy bo'l, saxovat seni sevikli qiladi».

2. «Bilimning qadrini kishiga ilm bildiradi, bilimni nodon, tuban kishi nima qiladi».

3. «Sadaqaning afzali mo'min kishi ilm o'rganib, so'ng boshqa mo'min birodarlariga ham o'rgatishidir».

2. Mehnatga, Vatanga, odobga, so'zlari qaysi kelishikda?

A) jo'nalish kelishik

B) qaratqich kelishik

C) tushum kelishik

3. «H» va «x» harflaridan mosini qo'ying.

1. Me_nat

2. A_loq

3. _alolik

4. Ra_mdil

5. Sa_iy

6. Pa_lavon

4. Quyida berilgan hikmatlarning ma'nosini tushuntirib bering.

1. «Halol-pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir».

2. «Agar biror kishidan yaxshilik ko'rsang, u kishini ko'p maqta, duo qil».

5. Yaqin ma'noli otlar yozilgan qatorni belgilang.

A) Vatan, ilm, oila.

- B) odob, axloq, xulq.
- C) mehnat, adolat, inson.

6. Inson bilimli, aqlli bo'lishi uchun nima qilishi kerak?

- A) o'qishi
- B) uxlashi
- C) o'ynashi

7. Quyida keltirilgan shartli belgilarga mos keladigan gaplarni o'rniga qo'yib yozing.

_____	<i>~~~~~</i>	<i>~~~~~</i>	=====	.
_____	<i>~~~~~</i>	_____	=====	?
<i>~~~~~</i>	_____	_____	=====	.
_____	<i>~~~~~</i>	<i>~~~~~</i>	=====	?

Shartli belgilar o'rniga qo'yish uchun gaplar:

1. Karim ko'p kitob o'qiydimi?
2. Men elimning yuragida yashayman.
3. Konstitutsiyamiz necha bobdan iborat?
4. Kelajakda Aziz harbiy bo'lmoqchi.

8. Dunyoda hamma narsadan nima qimmatliroq?

- A) pul.
- B) oltin.
- C) bilim.
- D) qimmatbaho buyumlar.

9. Mamlakatimizda qachon onalar kuni nishonlanadi?

- A) 1-yanvarda.
- B) Navro'z bayramida
- C) 8-martda.
- D) 1-sentyabrda.

10. O'zbekistonda nimani «oq oltin» deb ataydilar?

- A) neft.
- B) gaz.
- C) paxta.
- D) suv.

2-ilova

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik holatini aniqlashga qaratilgan savollar

1. Mehnatsevarlik ma'nosini tushuntiring.
2. O'zbekiston Respublikasi madhiyasining musiqasini kim bastalagan?
3. O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?
4. Kimlar vatanparvar bo'la oladi?
5. Saxiylik deganda nimani tushunasiz?
6. Yaxshi xulq kishining ziynati deganda nimani tushunasiz?
7. Kamtarlik nima?
8. Mehnatning tagi rohat deganda nimani tushunasiz?
9. Odobning mazmunini qanday tushunasiz?
10. Halollik nima?

3-ilova

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik holatini aniqlashga qaratilgan test

1. Eng keng dargoh nima?
 - a) Saroy
 - b) Ona quchog'i
 - d) Qasr
2. Ona orzusi nima?
 - a) farzand kamoli
 - b) boylik

d) to`qlik

3. Eng shirin qo`shiq nima?

a) maqom

b) lapar

d) alla

4. Jasorat nima?

a) saxiylik, mehribonlik

b) mardlik, botirlik, dovyurakliok

d) ikkala javob ham to`g`ri

5. Inson qadri nima bilan o`lchanadi?

a) boylik bilan

b) umr mazmuni bilan

d) yoshi bilan

6. “Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon” Mazkur fikrni kim aytgan?

a) Fitrat

b) A. Avloniy

d) Elbek

7. Bolalar to`g`risidagi Konvensiya qachon qabul qilingan?

a) 1991 – yil

b) 1998 – yil

d) 1993 – yil

8. Bolalar Konvensiyasi necha moddadan iborat?

a) 64 modda

b) 54 modda

d) 50 modda

9. O`zbekistonda O`zbek tiliga – davlat tili maqomi qachon berilgan?

a) 1996yil 21-dekabr

b) 1990-yil 21 oktabr

d) 1989 –yil 21 – oktabr.

10. Konstitutsiya qachon qabul qilindi?

- a) 1991 – yil
- b) 1992 – yil
- d) 1993 – yil

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
b	a	d	d	b	b	b	a	d	b

4-ilova

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik holatini aniqlashga qaratilgan test

1. Konstitutsiya necha bob, necha bo`lim va necha moddadan iborat?

- a) 5 bo`lim, 24 bob, 143 modda
- b) 6 bo`lim, 26 bob, 128 modda
- d) 8 bo`lim, 28 bob, 132 modda

2. Amir Temur adolatsevar kishilarga qarata nima degan edi?

- a) Kuch adolatdadir
- b) Kuch birlikdadir
- d) Kuch do`stlikdadir

3. Salomatlik kushandalari nimalar?

- a) chekish – ichkilik
- b) giyohvandlik
- d) ikkalasi to`g`ri

4. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi qachon ochilgan?

- a) 1995 –yil 18 – dekabr
- b)1996 – yil 18 – oktabr
- d) 1997 – yil 18 –oktabr

5. Ushbu misrada qanday g`oya ilgari surilgan?

Bu yorug` olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda Ona degan nom.

a) Ona-Vatan

b) shahar

d) qishloq

6. “Kulcha non” matnida nima tasvirlangan?

a) Mehr-muhabbat

b) do`stlik

d) saxiylik

7. Ching`isqon J.Manguberdi haqida nima degan edio?

a) Mening o`g`lim bo`lsaydi

b) 40 o`g`lim bo`lsa almashar edim

d) o`g`lim bilan faxrlanardim

8. Avesto kim tomonidan yaratilgan?

a) Zardo`sht

b) Xalq og`zaki ijodi

d) Ahuramazda

9.”Ota jasorati” hikoyasi qaysi romandan parcha olingan?

a)Yulduzli tunlar

b)O`tgan kunlar

d) Mehrobdan chayon

10. “Xijron so`zi” she`rini kim yozgan?

a) A.Oripov

b) A.Avloniy

d) S.Hakim

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
b	a	d	d	a	d	b	a	a	a